

Andijon davlat universiteti
Pedagogika fakulteti Pedagogika-psixologiya
ta'lim yo'nalishi 4-bosqich talabasi
Xoliqova Zarnigorning

BITIRUV

MALAKAVIY ISHI

Mavzu: XULQ-ATVOR VA ODATNI SHAKLLANTIRISH -
SHAXSNI TARBIYALASHNING ASOSIY YO'NALISHI SIFATIDA



Ilmiy rahbar:

dots.M.Xalimova

Andijon-2015

**MAVZU: XULQ-ATVOR VA ODATNI SHAKLLANTIRISH -
SHAXSNI TARBIYALASHNING ASOSIY YO'NALISHI SIFATIDA.**

Kirish.

1.BOB Xulq –atvor va odatlar muammosining nazariy metodologik asoslari.

1.1 Xulq – atvor va odatlar jahon psixologlar talqinida.

1.2. Shaxs tarbiyasining psixologik xususiyatlari.

1.3. Ijtimoiy ta'sirlarning shaxs tomonidan anglanishi.

2.BOB. Xulq-atvor va odatni shakllantirish - shaxsni tarbiyalashning asosiy yo'nalishi sifatida .

2.1. Xulq – atvor va odatlarni shakllanishining psixologik tavsifi.

2.2. Ijtimoiy xulq motivlari va shaxs motivatsiyasi

2.3.Shaxs tarbiyasi jarayonida xulq-atvor va odatlarni shakllanishini o'rganish usulari

3.BOB. Amaliy taxlillar.

3.1. Tajribalar o'tkazish va natijalar interpretatsiyasi/

Xulosa.

Tavsiya.

Foydalanilgan adabiyotlar.

Ilovalar.

MUNDARIJA.

Kirish._____

1.BOB Xulq –atvor va odatlar muammosining nazariy metodologik asoslari.-

1.1 Xulq – atvor va odatlar jahon psixologlar talqinida. _____

1.2. Shaxs tarbiyasining psixologik xususiyatlari. _____

1.3. Ijtimoiy ta'sirlarning shaxs tomonidan anglanishi. _____

2.BOB. Xulq-atvor va odatni shakllantirish - shaxsni tarbiyalashning asosiy yo'nalishi sifatida ._____

2.1. Xulq – atvor va odatlarni shakllanishining psixologik tavsifi. _____

2.2. Ijtimoiy xulq motivlari va shaxs motivatsiyasi _____

2.3. Shaxs tarbiyasi jarayonida xulq-atvor va odatlarni shakllanishini o'rganish usulari _____

3.BOB. Amaliy taxlillar._____

3.1. Tajribalar o'tkazish va natijalar interpretatsiyasi. _____

Xulosa._____

Tavsiya._____

Foydalanilgan adabiyotlar._____

Ilovalar_____

Kirish.

Mavzuning dolzarbligi. O‘zbekistonimizning kelajagi ko‘p jihatdan barkamol insonni shakllantirishga bog‘liq. Ana shunday dolzarb vazifani amalga oshirish uchun psixologiyaning barkamol insonni shakllantirishga oid boy tarixiy tajribasini o‘rganish va uni yangi shaxsning tarkib toptirishning ijtimoiy turmushga tadbiq etish jarayoni muhim ahamiyat kasb etadi. Prezidentimiz I.A.Karimov O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisning IX sessiyasidagi “... kelajak avlod haqida qayg‘urish, sog‘lom, barkamol naslni tarbiyalab yetishtirishga intilish bizning milliy xususiyatimiz” ekanligini alohida ta’kidlab o‘tadilar.

I.A.Karimov “O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li” nomli risolasida mustaqil O‘zbekistonni rivojlantirishning ma’naviy axloqiy negizlari, xalqimizning ma’naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish yo‘llari haqida fikr yuritar ekan: “Mustaqil O‘zbekistonning kuch-qudrati manbai xalqimizning umuminsoniy qadriyatlariga sodiqligidir. Xalqimiz adolat, tinchlik, ahil, qo‘shnichilik va insonparvarlikning nozik kurtaklarini asrlar osha avaylab, asrab kelmoqda. O‘zbekistonni yangilanishning oliy maqsadi ana shu an’analarni qayta tiklash, ularga yangi mazmun bag‘ishlash, zaminimizda tinchlik va demokratiya, farovonlik , madaniyat, vijdon erkinligi va har bir kishini kamol toptirishiga erishish uchun zarur shart-sharoitlar yaratishdir”, - deb ta’kidlaydi.

Haqiqatdan ham milliy qadriyatlarimiz va ma’naviyatimizni qayta tiklash uchun zarur shart-sharoitlar yaratmasdan turib, bu muhim vazifani amalga oshirib bo‘lmaydi.

Yuqoridagi g‘oyalarga asoslangan holda I.A.Karimov tarixchi olimlar bilan bo‘lgan uchrashuvda komil insonga quyidagicha ta’rif berib o‘tadi: “Komil inson deganda biz, avvalo ongi yuksak, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvori bilan o‘zgalarga namoyon bo‘la oladigan bilimli, ma’rifatli kishilarni tushunamiz” xuddi shu bois, bugungi kunda kasb-hunar kollej o‘quvchilarining barkamol inson sifatida shakllanishi va ularni hozirgi zamon sivilizasining taqdiri, ijtimoiy turmushning rivojlanishi bilan bog‘liqdir. Respublikamizda qabul qilingan

“Ta’lim to’g’risida” gi qonun haqida “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” da komil inson talablariga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash, milliy tizimini yaratishga alohida e’tibor qaratilgan.

Binobarin, mamlakatdagi ikqsodiy-ijtimoiy isloxotlarning samarali bo’lishini ta’minlash, ishlab-chiqarishda va ijtimoiy hayotning barcha bo’g’inlarida inson omilidan foydalanish, har bir ijtimoiy shaxs imkoniyatlarini to’la-to’kis yuzaga chiqarish masalasi bevosita psixologik bilimlarni ta’lim tarbiya jarayoniga keng tadbqiq etish vazifalarni amalga oshirish ulkan ahamiyatga egadir SHu boisdan bo’lsa kerak, hozirgi kunda barcha rivojlangan va rivojlanish yo’lidan borayotgan mamlakatlar birinchi galda o’z fuqarolarining ma’naviy va intellektual, jismoniy va ruhiy barkamolligiga va undan ijtimoiy manfaatlar uchun samarali foydalanish yo’llarini izlashga jiddiy e’tiborni qaratmoqdalar. SHu nuqtai nazardan, har bir mamlakatda inson va uning faoliyati o’rtasidagi uyg’unlikni ta’minlashga qaratilgan ijtimoiy-psixologik bilimlarni amaliyotga tadbqiq etish alohida ahamiyat kasb etadi. SHu nuktai nazardan bizning bitiruv malaka ishimiz amaliy va nazariy taxlillarga asoslangan xolda **“Xulq-atvor va odatni shakllantirish - shaxsni tarbiyalashning asosiy yo’nalishi sifatida.”** mavzusini yoritishga karatilgan. Ushbu mavzuning o’rganilishi pedagogik psixologik muammolar sifatida dolzarb masalalar katoriga kiradi.

Mavzuning ishlanganlik darajasi. Shaxs shakllanishida **Xulq – atvor va odatlar o’ziga xos tarzda ahamiyatga egadir.** dolzarb muammolari bugungi kunda barcha sohaga kirib borayotganligi bilan e’tibordadair. Shu o’rinda umumiy psixologiyaning dolzarbbligi va bu sohaga ta’luqli o’z yechimini kutayotgan masalalar bo’yicha qator jahon va o’zbek psixologlarining tadqiqot ishlari olib borayotganligini ta’kidlab o’tish joizdir. Ushbu muammo sobiq sovet psixologlaridan A.B.Petrovskiy, B.B.Davidov, L.S.Vigotskiy, A.T.Luriya, V.Ya.Laudis, B.S.Badmaev kabilarning ilmiy amaliyot tadqiqotlarida o’rganilgandir. Ularning ayrimlarini ta’kidlash psixologik bilimlarning qay darajada ahamiyatli ekanligiga ishonch hosil qilish mumkin. Jumladan: umumpsixologik bilimlarga ega bo’lish shahs aqliy taraqqiyotida va o’z-o’zini

anglashda muhimligini ta'kidlagan P.Ya.Galperin. N.N. Tallizinalarning izlanishlari bugungi kunda psixologiya fanlarini o'qitishda katta xizmat qilmoqda, Shuningdek psixologiya tarmoqlarini o'rganish va uni faoliyat jarayonidagi o'rnini D.B.Elkonin, V.V.Davidov, N.F.Tallizina, A.M.Matyushkina, T.V.Kudryavsev, L.N.Landa V.Ya.Lyadus, Ye.N.Kabanova-Meller, A.Verbitskiy, Z.I.Kal'mikova, E.G'.G'oziev, M.G.Davletshin, M.V.Voxidov, V.Karimova, B.Qodirov, G'.Shoumarov, Z.Nishonova va boshqalar turli ilmiy asoslar yordamida ko'rsatib o'tganlar. Mummoning umupsixologik, yosh davrlar va ijtimoiy psixologiya muammosi sifatida turli jihatdan tadqiq etilishida qator g'arb va sobiq sovet psixologlari, hamda o'zbek psixolog olimlarining izlanishlarida ko'rishimiz mumkin. Umumiy psixologiyaning dolzarb muammolariini zamonaviy fan tizimida yechimlarini tadqiq etish, qiyosiy tavsif qilinmagan metodlarni tadqiq etish orqali ularning samaradorligini ochib berish izlanishimizning bosh g'oyasi bo'lib hisoblanadi.

Ishning maqsadi. Hulq –atvor va odatlarni shakllantirish shaxsni tarbiyalashdagi psixologik xususiyatlarini nomoyon etishdagi rolini nazariy va amaliy tadqiq etish orqali umumlashtirilgan xulosalar olish va shu asosda psixologlar amaliy tavsiyalar berishdan iborat.

Tadqiqot farazlari. Tadqiqot maqsadidan kelib chiqib quyidagi vazifalarni belgilaboldik.

- Tadqiqot muammosni nazariy o'rganish maqsadida ilmiy adabiyotlarni taxlil qilish, ilmiy manbaalarni o'rganib chiqish, ma'lumotlar to'plash va tadqiqot usullarini tanlash.

- **Xulq – atvor va odatlarning shakllanishi yoshga xos jihatdan o'zgarishi, shakllanishi, va rivojlanishini** psixologik tahlil qilish va umumlashtirilgan xulosalar ishlab chiqish.

- Xulq –atvor va odatlarning rivojlanishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy psixologik omillar ahamiyatini amaliy tadqiq etish.

- Amaliy tajribalar tashkil etish jarayonida talabalarni psixologik bilimlar bilan qurollantirish, mavjud bilimlarni mustaxkamlash, tadqiqot muammosini

yoritish.

Tadqiqot ob'ekti. O'smirlik yoshidagi xulq atvor va odatlarni shakllanish jarayoni. Shuningdek ta'lim, tarbiyaning shahs xulqiga ta'siri muammolari.

Tadqiqot predmeti: Xulq atvor va odatlarni shakllanish jarayonini nazariy va amaliy tadqiq etish, va psixologik qonuniyatlar asosida o'rganish va unga ta'sir etuvchi hamkorlik imkoniyatlarining determinatsiyalaridir

Tadqiqotning metodologik asosi. Prezident I. A. Karimovning asarlaridagi g'oyalar, O'zbekiston respublikasining davlat xujjatlari, "Ta'lim Jahon psixologiyasidagi ilg'or konsepsiyalar, yondashuvlar, ilmiy psixologik prinsiplar, qonunlar, qonuniyatlar, mexanizmlar; zamonaviy pedagogik psixologik texnologiyalar negizi; buyuk ajdodlarimizning ilmiy ta'limotlari: to'g'risida"gi Qonun, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" va boshqa xujjatlar.

Tadqiqot metodlari.

Muammoni amaliy o'rganish jarayonida Kuzatish, so'roq, savol javob, xulq atvorni shakllanishini o'rganiuvchi metodlar, shaxsni o'rganish usullari va eksperiment ishlarini o'tkazish, IPS, diagnostik tahlil qilish testlardan foydalanildi..

Tadqiqotning ilmiy yangiligi.

- Mavzuga ta'luqli birlamchi manbaalar tahlil qilinganligi hamda umumlashtirilganligi.
- Eksperiment o'tkazish uchun original materiallar to'planganligi hamda izlanish ob'ektlariga va sub'ektlariga muvofiqlashtirilganligi.
- xulq atvor va odatlarni shakllanishining shaxs tarbiyasiga ijobiy va salbiy ta'lisirlarini aniqlashda ab'ektiv yondashilganligi.
- Muammoning zamonaviy tadqiq etishning zaruriyligi va uni ilmiyligini ta'minlanganligi, fanni o'qitishni takomillashtirishning o'ziga xos xususiyatlari, qonuniyatlari, mexanizmlarining dalillab berilganligi.
- Psixologiya sohasi bo'lgan bolalar psixologiyasi va maxsus psixologiya fanlarini nazariy va amaliy manbaalar bilan boyitilganligi.

- Tajribalarda talabalarda o'ziga xoslik, yosh davr xususiyatlari va tafovutlari ishonchli mezonlar asosida ko'rsatib o'tilganligi.

Tadqiqotning nazariy ahamiyati.

1. Olingan natijalar umumiy psixologiyani dolzarb masalalarini yechimini topish imkoniyatini beradi. Umumiy psixologiyani ta'lim tizimidagi ahamiyati, psixologik bilimlarning kasbiy faoliyatdagi o'rni yuzasidan tavsiyalarning berilishi. Ta'lim jarayonida sub'ekt-sub'ekt munosabatlarining o'ziga xos xususiyatlariga oid ilmiy materiallar bilan psixologiya sohalarini boyitilishi

2. Bugungi kunning asosiy zamonaviy fanlaridan xisoblanayotgan psixologiya faniga e'tiborni oshirish, psixologiya fanining o'ziga xos ahamiyatli tomonlarini ochib berish.

3. Ta'lim sohasidagi olib borilayotgan islohotlar asosida psixologiya sohasida ham yangiliklar kashf etish imkoniyatlarini yaratish.

4. Psixologiya sohasi bo'lgan bolalar psixologiyasi va maxsus psixologiya fanlarini nazariy va amaliy manbaalar bilan boyitilganligi.

Ilmiy tadqiqotning amaliy ahamiyati.

Tadqiqot xulosa va tavsiyalaridan umumiy psixologiya fanini o'qitishda, mashg'ulotlarni tashkil etishda barcha soha mutaxassisleri va mutaxassis o'qituvchilar faoliyatida foydalanishlari mumkin. Psixologik bilimlarni o'rgatishda innovatsion texnologiyalarning afzalliklarini ochib berish va ta'limda joriy etish uchun amaliy tajribalar tashkil etishda foydalanishlari mumkin.

Bitiruv malaka ishining strukturasi va hajmi.

Bitiruv malaka ishi 3 bob 7 bo'lim xulosa, tavsiya, foydalanilgan adabiyotlar va ilovalardan iborat.

1.BOB Xulq –atvor va odatlar muammosining nazariy metodologik asoslari.

1.1 Xulq – atvor va odatlar jahon psixologlar talqinida.

Milliy an'analar urf-odatlarimizning tiklanishi, milliy, umumbashariy va umumma'naviy qadriyatlarimizni hayotimizga tatbiq etilishi xalqimizning turmush sharoitini o'zgarishiga olib keldi. Jamiyatimiz uchun bilimdon, fidokor, iste'dodli yoshlarni tarbiyalash imkoniyati yaratildi. O'zbek xalqi yuksak aql-zakovatga dunyoni boshqarish qudrati, salohiyati, qobiliyatiga ega bo'lgan sohibqiron Amir Temur kabi sarkardalar, Al-Buxoriy, At-Termiziy, Bahovuddin Naqshband, Xo'ja Ahmad Yassaviy kabi ulug' muhandis majtahid ulamolari, Abu NasrForobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino kabi qomusiy olimlari bilan birgalikda Ul-Umaviy, Hofiz Sheroziy kabi musiqashunos olimlari, Nizomiy Ganjaviy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Ulug'bek kabi mutafakkirlari bilan faxrlanib qolmay, ularning ishlarini davom etishiga, fan sohasida yangiliklar yaratishga ham qodirdirlar.

Shuningdek, mamlakatimizda nomlari jahon fani tarixiga kirgan olimlarimiz ko'plab topiladi. Bizda madaniy saviyani oshirish, xalqimiz orasida ko'plab bunyodga kelgan talant va salohiyatlarni kamol toptirish uchun barcha imkoniyatlar yaratilgan.

Bugungi kunda oldimizga qo'ygan buyuk maqsadlarimizga, ezgu niyatlarimizga erishishimiz, jamiyatimizning yangilanishi, hayotimizning taraqqiyoti va istiqboli, amalga oshirilayotgan isloxotlarimiz, rejalarimiz samarasi, takdiri –bularning barchasi avvalambor zamon talablariga javob beradigan yuqori malakali, ongli mutaxassis kadrlarni tayyorlash muammosi bilan bog'liq. Shuning uchun ham yosh avlodni yetuk barkamol shaxs qilib tarbiyalashda ayniqsa pedagog-psixologlar vazifasi juda ma'suliyatlidir.

Har qanday muammoni yechish uning nazariy asoslarini o'rganishdan boshlanadi. Muammoning nazariy asoslari deganda, shu sohadagi mavjud tushunchalar, qonunlarni yaxshi bilib olish nazarda tutiladi. Muayyan ilm qaysi ob'ektiv borliqni o'rganishni, uning asosiy maqsadi, vazifalari nimadan iboratligini

hamda shu sohadagi qonuniyatlar jamiyat manfaatlariga qanday xizmat qilishini yaxshi bilgan bo'lishi zarur. Hozirgi paytda tayyor bilimlarni o'zlashtirish asosiy maqsad bo'lmay, eng asosiysi o'quvchi-yoshlarning intellektual qobiliyatini rivojlantirish, o'z kasbi bilimlarini rivojlantirish orqali mustaqil kasb tanlash, mustaqil tanlash va qaror qabul qilish ko'nikmasini hosil qilish ob'ektiv zaruriyatga aylandi. Bugungi kunda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" talablarini amalga oshirish jarayonida yuqori malakali pedagoglarni tayyorlash muhim muammo sifatida kun tartibiga qo'yilmoqda. Binobarin, uzluksiz ta'lim tizimining samarali faoliyat ko'rsatishi, eng avvalo, malakali pedagog kadrlar faoliyatiga bog'liqdir. Shu bois, amalga oshirilayotgan ta'limiy islohatlar kadrlar tayyorlash tizimi va mazmunini mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollariidan, jamiyat ehtiyojlaridan, fan, madaniyat, texnika va texnologiyaning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqqan holda qayta qurishni nazarda tutadi. Shunday ekan ushbu talablardan kelib chiqqan holda bilimdon, mustaqil fikrlovchi, ijodiy izlanuvchi, yuqori malakali, madaniyatli, turli soha egalarini tayyorlash dolzarb muammolardan hisoblanadi. Shaxs xulq-atvori va odatlarining shakllanish muammolarini tadqiq etishda rus va sobiq ittifoq psixologlari o'zlarining munosib hissalarini qo'shganlar, jumladan, K.D.Ushinskiy, I.M.Sechenov, I.P.Pavlov, V.M.Bexterev, A.F.Lazurskiy, V.M.Myasishchev, A.A.Uxtomskiy, L.S.Vigotskiy, S.L.Rubinshteyn, A.N.Leontev, P.M.Yakobson va boshqalar izlanishlarida ushbu masala yuzasidan tadqiqot olibborib fan psixologiyasini rivojlanishiga katta xissa qo'shganlar. Buyuk allomalarimiz ta'kidlaganidek kishining fe'l-atvori hammadan ko'ra ko'proq hayotining dastlabki yillarida tarkib topadi va unda shu davrda paydo bo'lgan sifatlar-mustahkam o'rnatilib kishining ikkinchi tabiatiga aylanadi.

D.A.Farber (1991) fikricha, 7 yoshga kelib intellektual rivojlanish bosqichlarida o'zgarishlar yuzaga keladi, abstrakt tafakkur va faoliyatning mustaqil regulatsiyasi yetilishi uchun sharoitlar yuzaga keladi. 6-7 yoshli bolalar miya po'stlog'i va po'stloq osti tuzilmalarining funksional yetilish tezligi sustligi bois maktabda o'qishga tayyor bo'lmaydilar, maktabdagi doimiy yuklamalar ularning markaziy nerv sistemalari kompensator mexanizmlarida uzilishlarga hamda

o'qishdagi qiyinchiliklarda namoyon bo'luvchi maktabga moslashuvning qiyinligi ularning diqqatini bir joyga to'plash qiyinchiligini tug'diradi. Shuning uchun ularning diqqati beqaror bo'ladi. Inson tarbiyasi, shaxs sifatida shakllanishining o'ziga xos jihatlari masalalari bo'yicha sharq allomalarining fikrlari ham ahamiyatga egadir. Jumladan, Ibn Sinoning 5 tomlik «Tib konunlari» asarida organizmning tuzilishi, undagi nervlar va nerv yullari, fiziologik jarayonlar xakida ancha muxim ma'lumotlar bor. Uning «odob xakida» risolasi xam inson shaxsini shakllantirish tugrisidagi jiddiy asardir.

Yusuf Xos Xojibning «Kutadgu bilig» asaridagi bosh masalalardan biri - komil insonni tarbiyalashdir.

Davoniy uzining «Axlokiy Jaloliy» asarida inson uzining akliy kobiliyati va iste'dodini tarbiyalashi kerakligi, buning uchun bilimlarni egallashi lozimligini ta'kidlaydi.

A.Navoiyning barcha asarlarida yetuk, barkamol insonning axloki, ma'naviyati, odamlarga munosabati, iste'dodi va kobiliyati tugrisida kimmatli fikrlar yuritilgan.

Yukoridagi allomalardan tashkari Bobur, Farogiy, Majlisiy, Nodira, Uvaysiy, Mukimiy, Xamza, Avloniylarning yoshlar tarbiyasiga axlok-odob, f'l-atvor, oilaviy xayot masalalariga, shaxslararo munosabatlarga doir karashlari turli janrlardagi asarlarida bayon etilgan. Xozirgi kunda inson shaxsini tadkik kilishga xar xil nuktai nazardan yondoshadigan bir kator nazariyalar (ta'limotlar) mavjud: a) biogenetik, b) sotsigenetik, v) psixogenetik, g) kognitivistik, d) psixo-analitik, ye) bixevioristik.

«Shaxs» tushunchasi psixologiyada eng ko'p qo'llaniladigan tushunchalar sirasiga kiradi. Psixologiya o'rganadigan barcha fenomenlar aynan shu tushuncha atrofida qayd etiladi. Inson ruhiy olami qonuniyatlari bilan qiziqqan har qanday olim yoki tadqiqotchi ham shaxsning ijtimoiyligi va aynan jamiyat bilan bo'lgan aloqasi masalasini chetlab o'tolmagan.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, «Homo sapiens» - «aqli zot» tushunchasini o'zida ifoda etuvchi

jonzotning paydo bo'lganiga taxminan 40 ming yildan oshibdi. Bu davrda olimlarning e'tirof etishlaricha, 16 ming avlod almashgan emish. Darwin ta'biri bilan aytganda, tabiiy tanlanish jarayonida yer yuzida saqlanib qolgan minglab millat va elatlarning keyingi davrdagi taraqqiyoti ko'prok biologik omillardan ko'ra, ijtimoiy - sotsial omillar ta'sirida ro'y bermoqda. Shuning uchun ham har bir individni yoki shaxsni o'rganish masalasi uning bevosita ijtimoiy muhiti va uning ijtimoiy normalari doirasida o'rganishni taqozo etadi.

Sotsial yoki ijtimoiy muhit - bu insonning aniq maqsadlar va rejalar asosida faoliyat ko'rsatadigan dunyosidir. Mazmunan har bir insonning shu ijtimoiy olam bilan aloqasi uning insoniyat tajribasi, madaniyati va qabul qilingan, tan olingan ijtimoiy xulq normalari doirasidagi harakatlarida namoyon bo'ladi. Psixologiya ilmining namoyondalari bo'lmish olimlarning butun bir avlodi ana shu shaxs va jamiyat aloqalari tizimida insonning tub mohiyatini anglash, uning rivojlanishi va kamol topishi qonuniyatlarini izlaganlar. Abu Nasr Farobiy, A.Navoiy, Ibn Sino, Beruniy kabi yuzlab Sharq allomalari ham bu o'zaro bog'liqlikning falsafiy va ijtimoiy sirlarini ochishga o'zlarining eng durdona asarlarini bag'ishlaganlar. Barcha qarashlarga umumiy bo'lgan narsa shu bo'lganki, odamni, uning mohiyatini anglash uchun avvalo uning shu jamiyatda to'tgan o'rnini va mavqeini bilish zarur. Shaxsni o'rganishning birlamchi mezoni ham shundan kelib chiqqan xolda, uning ijtimoiy mavqei, ijtimoiy munosabatlar tizimidagi o'rnini bilan belgilanishi kerak.

Lekin, shaxs bilan jamiyat o'rtasidagi o'zaro aloqalar masalasi birdaniga, bir xil yechimga kelinmagan. Bu o'zaro munosabatlar asosan ikki polyar nuqtai nazardan kelib chiqadi.

Nativizm yo'nalishining tarafdorlari insonlardagi barcha xususiyatlarni tug'ma xarakterga ega, deb e'tirof etadilar. (Lens, Gruber va boshqalar).

Empirizm tarafdorlarining fikricha, yangi tug'ilgan bola go'yoki «top - toza taxta»(tabula rasa), unga hayot va undagi talablar o'zining qonuniyatlarini yozadi va bola ularga so'zsiz

bo'ysunishga majbur. Bu yo'nalishning asoschilaridan biri Dj. Lokk bo'lib (1632 - 1704) uning fikricha, tug'ma fikrlar yoki g'oyalar bo'lishi mumkin emas, ular xoxish - tilak va og'riq kabi elementar sezgilarning qayta ishlanishi natijalaridir. Hayotda ana shunga o'xshash turli xil sezgilar va g'oyalarning assotsiatsiyasi ro'y beradi.

G. Leybnits (1646-1716)

Lokka e'tiroz bildirib, hayotda umuman toza, sof doskaning o'zi bo'lmaydi, hattoki eng yaxshi silliqlangan marmar yuzasida ham sezilarli teshiklar, do'ngliklar yoki tug'ma asoratlari bo'ladiki, ular layoqatlardek inson takdirida ma'lum rol o'ynaydi. Bu ikkala yirik yo'nalish o'rtasidagi tortishuvlarga chek qo'yish maqsadida **F. Galton** qator eksperimental tadqiqotlar o'tkazib, har bir individga xos differensial xususiyatlar mavjudligini «egizaklar metodi» yordamida asoslashga harakat qildi. 2 - jadvalda Galton tomonidan irsiy va orttirilgan sifatlar munosabati yuzasidan aniqlangan natijalardan keltirilgan.

3 - jadval.

Musikiy qobiliyatlardagi irsiy xususiyatlar

Ota - onalar Bolalar	musiqaga moyil	musiqaga moyil emas
Musiqaga moyil	85 %	7 %
Musiqaga moyil emas	25 %	58 %

Egizaklardagi musiqaga moyillikning korrelyatsion ko'rsatgichi ham yuqori bo'lib ($p = 0,7$), egizak bo'lmaganlardan ancha farq qiladi ($p = 0,3 - 0,4$).

Galtondan keyingi tadqiqotlarda musiqaga bo'lgan qobiliyatga ona tilining xususiyati ta'sir qilishi aniqlandi: yumshoq - tonal yoki keskir - tonal bo'lmagan tillar. Masalan, keskinrok hisoblangan rus tilida gapiruvchi bolalardagi musiqani idrok qilish yumshok, tonal tillarda so'zlashuvchi vietnamliklarning idrokidan ancha past chiqqan.

Lekin yuqoridagi fikrlar va tortishuvlarning kelib chiqish sababi tushunarli bo'lishi kerak: ular insonning asl mohiyatini tushunish va uning xulqini boshqarish ehtiyojlaridan kelib chiqadi. Demak, inson jamiyat a'zosi sifatida uning normalariga bo'ysunadi, uning kutishlariga javob berishga harakat qiladi va o'z xulqini uning talablariga monand qilishga intiladi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, garchi bu muammo psixologik xarakterga ega bo'lsa-da, u bilan barcha soha mutaxassisleri shug'ullanganlar, xolbuki shunga qaramasdan bu muammoning diagnostikasi haqida bir-biriga qarama-qarshi turli xil qarashlar mavjud. Zamonaviy psixologiyada esa bu muammo ustida tadqiqot olib borgan mutaxassislar juda ozchilikni tashkil etadi. Shu nuqtai nazardan bizning mavzuimiz ilmiy nazariy man'lumotlar asosida, tajribalarga tayangan holda mazkurmuammolarni taxlil qilishga karatilganligi bilan ahamiyatlidir.

1.2. Shaxs tarbiyasining psixologik xususiyatlari.

Shaxs ma'lum ijtimoiy munosabatlar sistemasida shakllangan ijtimoiy mavjudotdir. Xar bir tarixiy davrda shaxsning uziga xos xususiyatlari shu davrning ijtimoiy-iktisodiy tipi va tarbiya tizimiga bog'lik holda tashkil topadi, shakllanadi. Bolaning psixik rivojlanishi masalasi yosh va pedagogik psixologiyaning markaziy masalasi (muammosi) xisoblanadi. Bu muammoni tugri xal etish yosh va pedagogik psixologiyaning fan sifatida tarakkiy etishiga ham, yosh avlodni zamon ruxida tarbiyalashda ham ahamiyati kattadir. Bola psixikasining tarakkiyoti xakida gapirishdan oldin tarakkiyotning tub moxiyatini tushunib olishi kerak.

«Rivojlanish» deganda biz «usish», «tarakkiy etish» suzlaridan foydalanamiz. o'sish- bu mikdor jihatidan ortish, ulg'ayishdir;

Taraqqiyot - esa fakat miqdor jihatdan emas, sifat jihatdan ham o'zgarishdir. Taraqqiyot qanday qilib, ya'ni qanday omillar ta'siri ostida yuzaga keladi?-bu masala eng muxim masaladir. Inson psixik taraqqiyotida qanday omillar - genetik (yoki orttirilgan omillar yetakchiligi muammosidir.

Xulq-atvor shakllanishida tarbiyaning roli katta.Yani bunda tarbiya orqali bolada turli xarkatlar, xarkter ko'rinishlari,o'ziga xos munosabatlar, va shaxslararo munosabatlarda o'ziga xos yondashishlar shakllanadi. Bu ularning olada olgan tarbiyasi bilan jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar tasirida o'z aksini topadi. Bu bir tomondan, bolaning o'z ota-onalaridan meros sifatida o'zlashtirilgan sifatlari, ikkinchi-tomondan, tashki muxit ta'sirini ham kamsitib bo'lmaydi Bu muammolar ustida bosh kotirgan olimlar L.Vigotskiy, J.Piaje, S.Rubinshteyn, A.Leontev ikkala omil rolini ham inkor kilmagan xolda ijtimoiy muxitning yetakchi ta'siri xakidagi fikrni baravar yoklaganlar. Chunki tugri tashkil etilgan ta'lim-tarbiya, oila va undagi uzaro munosabatlarning xarakteri, shaxs mulokotda buladigan ijtimoiy guruxlar u tanlagan kasb va kasbdoshlari muxiti kabi ijtimoiy omillar shaxsining rivojlanishi, uning uz-uzini anglash va uzgalarga munosabati, bilish jarayonlari hamda intellektual tarakkiyotida katta ahamiyatga ega.

Bolaning psixik tarakkiyotida ta'lim-tarbiya xal kiluvchi rol uynaydi. Xozirgi kunda ta'lim-tarbiya bilan tarakkiyotning uzaro munosabati masalasida bir kancha ta'limotlar mavjud:

1. Ta'lim-tarbiya va tarakkiyot jarayonlari bir-biridan mustakil.
2. Ta'lim-tarbiya ayni patda tarakkiyotdir.
3. Ta'lim-tarbiya va tarakkiyot boshka-boshka jarayonlar bulsada bir-biriga ta'sir etadi.

Xar bir odam shaxs sifatida turlicha namoyon bo'ladi. U o'zining xarakteri, kizikishi va kobiliyati, akliy rivojlanganlik darajasi, extiyoji va mexnat faoliyatiga munosabati bilan farklanadi. Bular shaxsning o'ziga xos xususiyatlar rivojlanib ma'lumot bir boskichga yetsagina mukammal, kamol topgan inson deyiladi.

Shaxsning ijtimoiy vokelikka, mexnatga, kishilarga jamiyatga bo'lgan munosabati turlicha. Uning faollik darajasi va axlok-odob borasilagi yetukligi ham turlichadir

Psixologiya fanida yosh davrlarini tabaqalash bo'yicha qator mustaqil nazariyalar mavjud, ular inson shaxsini tadqiq qilishga har xil nuqtai nazardan yondashadi va muammoning mohiyatini turlicha yoritadi. Ularga biogenetik, sotsiogenetik, psixogenetik, kognitivistik, psixoanalitik, bixeavioristik nazariyalarni kiritish mumkin.

Quyida mazkur nazariyalar va ularning ayrim namoyondalari ifodalagan yosh davrlarini tabaqalash prinsiplarini ko'rib chiqamiz.

Biogenetik nazariyada insonning biologik yetilishi bosh omil sifatida qabul qilingan, qolgan jarayonlarning rivojlanishi ixtiyoriy bo'lib, ana shu omil bilan o'zaro bog'likdir. Mazkur nazariyaga binoan, rivojlantirishning bosh maqsadi biologik determinantlarga(aniqlovchilarga) qaratiladi va ulardan ijtimoiy-psixologik xususiyatlar kelib chiqadi.

Rivojlanish jarayonining o'zi dastavval biologik yetilishning universal bosqichi sifatida talqin qilinadi.

Biogenetik qonunni F.Myuller

va E.Gekkel kashf qilgan. Biogenetik qonun organning rivojlanishi nazariyasini tashviq qilishda ham da antidarvinchilarga qarshi ko‘rashdi muayyan darajada tarixiy rol o‘ynagan. Biroq unda organning individual va tarixiy rivojlayaishi munosabatlarini tushuntirishda qo‘pol xatolarga yo‘l quyilgan. Jumladan, biogenetik qonunga ko‘ra, shaxs psixologiyasining individual rivojlanishi (ontogenez) butun insoniyatning tarixiy rivojning(filogenez) asosiy bosqichlarini qisqacha takrorlaydi.

Nemis psixologi V.Shternning fikricha, chaqaloq(yangi tug‘ilgan bola) hali odam hisoblanmaydi, balki faqat sut emizuvchi hayvondir; olti oylikdan oshgach, u psixik rivoji jihatidan - faqat maymunlar darajasiga tenglashadi, ikki yoshida oddiy odam holiga keladi, besh yoshlarida ibtidoiy gala holidagi odamlar darajasiga yetadi, maktabga kirganidan boshlab ibtidoiy davrni boshidan kechiradi, kichik maktab yoshida uning ongi o‘rta asr kishilari darajasiga, nihoyat, yetuklik davri(16-18 yoshlari)dagina hozirgi zamon kishilarining madaniy darajasiga zrishadi.

S.Xoll rekapitulyatsiya qonunini(filogenezni qisqacha takrorlashni) psixologik o‘shishning bosh qonuni deb hisoblaydi. Uning fikricha, ontogenez filogenezning muhim bosqichlarini takrorlaydi. Olimning talqinicha, go‘daklik hayvonlarga xos rivojlanish pallasidan boshqa narsa emas. Bolalik esa asosiy mashg‘uloti ovchilik va baliqchilik bo‘lgan qadimgi kishilarning davriga aynan mos keladi. 8-12 yoshlardagi o‘shish davri yovvoyilikning oxiri va sivilizatsiyaning boshlanishidagi kamolotga tengdir. O‘spirinlik esa jinsiy yetuklikdan(12-13 yoshdan) boshlanib yetuklik davrigacha(22-25 yoshgacha) davom etib, romantizmga barobardir. S.Xollning talqinicha, bu davrlar bo‘ron va tazyiqlar, ichki va tashqi nizolar(ziddiyatlar)dan iborat bo‘lib, odamda individuallik tuyg‘usi vujudga keladi. Yosh davrlarini tabaqalashning bu turi o‘z navbatida tanqidiy mulohazalar manbai vazifasini o‘taydi, chunki inson zotidagi rivojlanish bosqichlari filogenezni aynan takrorlamaydi va takrorlashi ham mumkin emas.

Biogenetik konsepsiyaning boshqa bir turi nemis konstitutsion psixologiyasi(insonning tana tuzilishiga asoslangan nazariya) namoyondalari tomonidan ishlab chiqilgan. E. Krechmer shaxs(psixologiyasi) tipologiyasining negiziga bir qancha biologik omillarni(masalan, tana tuzilishining tipi va boshqalarni) kiritib,

insonning jismoniy tipi bilan o'sishining xususiyati o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjud, deb taxmin kiladi. E.Krechmer odamlarni ikkita katta toifaga: sikloid(tez qo'zg'aluvchi, his-tuyg'usi o'ta beqaror) va shizoid(odamovi, munosabatga qiyin kirishuvchi, his-tuyg'usi cheklangan)larga ajratadi. Bu tahminini yosh davrlari xususiyatlariga ham tatbiq etib, o'smirlar sikloid xususiyatli, o'spirinlar esa shizoid xususiyatlilikini ta'kidlaydi. Lekin insoniyatning kamol topishida biologik shartlangan sifatlar hamisha yetakchi va hal qiluvchi rol o'ynay olmaydi, chunki shaxsning individual-tipologik xususiyatlari bir-biriga aynan mos tushmaydi.

Biogenetik nazariyaning namoyondalari - amerikalik psixologlar A.Gezell va S.Xoll rivojlanishning biologik modeliga tayanib ish ko'radilar, bu jarayonda muvozanat, integratsiya va yangilanish sikllari o'zaro almashinib turadi, degyan xulosaga keladilar.

Psixologiya tarixida biologizmning eng yaqqol ko'rinishi Zigmund Frsidiing shaxs talqinida o'z ifodasini topgan. Uning ta'limotiga binoan shaxsning barcha xatti-harakatlari(xulqi) ongsiz biologik mayllar yoki instinktlardan kelib chiqadi, birinchi navbatda, jinsiy(seksual) maylga bog'likdir. Bunday biologizatorlik omillari inson xulqini belgilovchi birdan-bir mezon yoki betakror turtki rolini bajara olmaydi.

Biogenetik nazariyaning qarama-qarshi ko'rinishi sotsiogenetik nazariyadir. Bu nazariyada shaxsda ro'y beradigan o'zgarishlarni jamiyatning strukturali, ijtimoiylashish(sotsializatsiya) usullari, atrofdagi odamlar bilan o'zaro munosabat vositalari asosida tushuntiriladi. Ijtimoiylashish nazariyasiga ko'ra inson biologik tur sifatida tug'ilib, hayotdagi ijtimoiy shart-sharoitlarning bevosita ta'siri ostida shaxsga aylanadi.

G'arbning eng muhim nazariyalaridan biri - rollar nazariyasidir. Bu nazariyaga ko'ra jamiyat o'zining har bir a'zosiga status(haq-huquq) deb nomlangan xatti-harakatning barqaror usullari majmuasini yaratadi. Inson ijtimoiy muhitda bajarishi shart bo'lgan maxsus rollar uning xulq-atvorida, boshqalar bilan munosabatida sezilarli iz qoldiradi.

AQShda individual tajriba va bilimlarni o'zlashtirish (ko'nikish) nazariyasi keng tarqalgan. Mazkur nazariyaga binoan, shaxsning hayoti va voqelikka munosabati,

ko'nikmalarni egallashi va bilimlarni o'zlashtirishi qo'zg'atuvchining barqarorligiga bog'liq.

K.Levin tavsiya qilgan fazoviy zarurat maydoni nazariyasi o'z davrida muhim ahamiyat kasb etgan. K.Levin nazariyasiga ko'ra, shaxsning xulqi(xatti-harakati) psixologik kuch vazifasini o'tovchi ishtiyoq(intilish), maqsad (niyat) bilan boshqarilib turadi, bu kuchlar fazoviy zarurat maydonining ko'lami va tayanch nuqtasiga yo'nalgan bo'ladilar.

Yuqorida ifodalangan har bir nazariya shaxsning ijtimoiy xulqini o'zgalar uchun yopiq yoki maxfiy muhitning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda tushuntiradi, bunda u odam xohishi yoki xohlamasligidan qati nazar, mazkur sharoitga moslashmog'i(ko'nikmog'i) zarur, degan qoidaga amal qiladi.

Bizningcha, barcha nazariyalarda inson hayotining ijtimoiy-tarixiy, ob'ektiv shart-sharoitlari mutlaqo e'tiborga olinmagan.

Psixologiyada psixogenetik yondashish ham mavjud bo'lib, u biogenetik va sotsiogenetik omillarning qimmatni kamsitmaydi, balki psixik jarayonlarning rivojlanishini birinchi darajali ahamiyatga ega deb hisoblaydi. Mazkur yondashishni uchta mustaqil yo'nalishga ajratib tahlil qilish mumkin va bu yo'nalishlar o'z mohiyati, kechishi va mahsuli jihatidan keskin farqlanadi.

Psixikaning irratsional(aqliy bilish jarayonlaridan boshqa) tarkibiy qismlari: emotsiya, mayl yordamida shaxsning xulqini tahlil qiluvchi nazariya psixodinamika, deyiladi. Bu nazariyaning yirik namoyondalaridan biri amerikalik psixolog E.Eriksondir. U insoining umrini o'ziga xos betakror xususiyatlarga molik 8 ta davrga ajratadi.

Birinchi davr - go'daklikda tashqi dunyoga ongsiz tuyg'us vujudga keladi. Buning bosh sababi ota-onaning mehr-muhabbati, g'amxo'rliqi va jonkuyarligidir. Agar go'dakda ishonchning negizi, paydo bo'lmay, bog'liqda ishonchsizlik hissi tug'ilsa, voyaga yetgan odamlarda umideyzlik vujudga kelishi shubhasizdir.

Ikkinchi davr - ilk bolalikda yarim mustaqillik va shaxsiy qadr-qimmat, tuyg'usi shakllanadi yoki aksincha, ularning teskarisi - uyat va shubha hissi hosil bo'ladi. Bolada mustaqillikning o'sishi unga o'z tanasini boshqarish uchun keng imkoniyat

yaratib, bo'lg'usi shaxs xususiyatlaridan tartib va intizom, mas'uliyat, javobgarlik, hurmat tuyg'ulari tarkib topishiga zamin hozirlaydi.

Uchinchi davr - o'yin yoshi deb atalada va unga 5-7 yoshli bolalar kiradi. Bu davrda tashabbus tuysusi, qandaydir ishlarni amalga oshirish, bajarish mayli tarkib topadi. Mabodo boladagi xohish-istakni ro'yobga chiqarish yo'li to'sib qo'yilsa, buning uchun u o'zini aybdor deb hisoblaydi. Mazkur davrda, ya'ni guruhda, o'yinlarga, tengqurlari bilan muloqotga kirishish muhim ahamiyat kasb etadi: bola turli rollar bajarib ko'rishiga, uning xayoloti o'sishiga imkon yaratadi. Xuddi shu davrda bolada adolat tuyg'usi, uni tushunish mayli tug'ila boshlaydi.

To'rtinchi davr - maktab yoshi boladagi asosiy o'zgarishlar: ko'zlagan maqsadiga erishish uchun intilish, uddaburolik va tirishqoqlik bilan ajralib turadi. Uning eng muhim qadriyati omilkorlik va mahsuldorlikdan iboratdir. Bu yosh davrining salbiy jihatlari(illatlari) ham bo'lib, ular ijobiy xislatlari yetarli bo'lmasligi, ong hayotning barcha qirralarini qamrab ololmasligi, muammolarni hal qilishda aql-zakovat darajasining pastligi, bilimlarni o'zlashtirishdagi qoloqlik va zrkazolardir. Xuddi shu davrda shaxsning mehnatga munosabati shakllana boshlaydi.

Beshinchi davr - o'spirinlik betakror xislati, o'ziga xosligi, boshqa odamlardan keskin farqlanishi bilan xarakterlanadi. Shuningdek, o'spirinlik shaxs sifatida noaniqligi, muayyan rolni uddalamaslik, qat'yatsizlik singari salbiy sifatlarga ham etadir. Mazkur davrning eng muhim xususiyati rolni kechiqtirishning o'zgarishi hisoblanadi. U ijtimoiy hayotda bajarayotgan rollarning ko'lami kengayadi, lekin ularning barchasini jiddiy egallash imkoniyatiga ega bo'lmaydi, shuningdek rollarda o'zini sinab ko'rish bilan cheklanadi, xolos. Erikson o'spirinlarda o'zini o'zi anglashning psixologik mexanizmlarini batafsil tahlil qiladi, unda vaqtni yangicha his qilish, psixoseksual qiziqish patogen(kasallik qo'zg'atuvchi) jarayonlarni va ularning turli ko'rinishlari namoyon bo'lishini bayon qiladi.

Oltinchi davr - yoshlik boshqa jinsga psixologik intim yaqinlashuv qobiliyati va ehtiyoji vujudga kelishi bilan ajralib turadi. Bunda ayniksa, jinsiy mayl alohida o'rin tutadi. Bundan tashqari, yoshlik tanholikni yoqtirish va odamovilik kabi yoqimsiz xususiyat bilan ham farqlanadi.

Yettinchi davr - yetuklik davrida hayotiy faoliyatning barcha sohalarida (mehnatda, ijodiyotda, g'amxo'rlikda, pusht qoldirishda, tajriba uzatish va boshqalarda) mahsuldorlik tuyg'usi uzluksiz hamroh bo'ladi va ezgu niyatlarning amalga oshishida turtki vazifasini bajaradi. Shuningdek, mazkur davrda ayrim jihatlarda turg'unlik tuyg'usi salbiy xususiyat sifatida hukm surishi ham mumkin.

Sakkizinchi davr, ya'ni qarilik inson sifatida o'z burchini uddalay olganligidan, turmushning keng umrovliligidan qanoatlanish tuyg'ulari bilan xarakterlanadi. Salbiy xususiyat sifatida esa hayot faoliyatidan noumidlilik ko'ngil sovish tuyg'ularini aytish mumkin. Donolik, soflik, gunohlardan forig' bo'lish, har bir holatga shaxsiy va umumiy nuqtai nazarday qarash bu yoshdagi odamlarga xos eng muhim jihatlardir.

Hozirgi psixologiyaning yirik vakili A.V.Petrovskiy inson kamolotiga, shaxsning tarkib topishiga sotsial-psixologik nuqtai nazardan yondashib, yosh davrlarining o'ziga xos tasnifini yaratdi. A.V.Petrovskiygacha psixologlar shaxsning bir tekis kamol topishini o'rgangan bo'lsalar, u shaxs shakllanishining prosotsial(ijtimoiy qoidalarga muvofiq) va asotsial (aksilijtimoiy) bosqichlari ham bo'lishi mumkinligini isbotlab berishga harakat kiladi: shaxsning kamol topishi uchta makrofazadan iboratligini qayd etib, birinchisi - bolalik davriga to'g'ri kelishini, unda ijtimoiy muhitga moslashish, ko'nikish(adaptatsiya) ro'y berishini; ikkinchisi - o'smirlarga xos individuallashtirish; uchinchisi - o'spirinlikda, ya'ni yetuklikka intilish davrida o'ziga xos holatlarni muvofiqlashtirish(birlashtirish) xususiyatlari paydo bo'lishini bayon qiladi, shaxsning shakllanishi quyidagi bosqichlarda amalga oshishini ta'kidlaydi:

- Ilk bolalik(maktabgacha tarbiya yoshidan oldingi davr) - tug'ilganidan 3 yoshgacha.
- Bog'cha davri - 3 yoshdan 7 yoshgacha.
- Kichik maktab yosh davri - 7 yoshdan 11 yoshgacha.
- O'rta maktab yoshi (o'smirlik) davri- 11 yoshdan to 15 yoshgacha.
- Yukori sinf o'quvchisi(ilk o'spirinlik) davri - 15 yoshdan 17 yoshgacha.

A.V.Petrovskiyning tasnifi mukammal bo'lsa-da, kamolotning oraliq bosqichlarini, ularning o'ziga xos xususiyatlarini ifodalamaydi. Vaholanki, o'sish ijtimoiy qoidalarga muvofiqmi yoki aksil ijtimoiymi, baribir, har ikki yo'nalishning ham oraliq jabhalari bo'lishi ehtimoldan xoli emas. Lekin bu g'oyani chuqur ifodalab berish joiz.

D.I.Feldshtsin tasnifi ham shaxsga ijtimoiy yondashuvga asoslangan bo'lsa-da, A.V.Petrovskiy tasnifidan keskin farq qiladi. Uning fikricha, inson shaxs sifatida shakllanishda ikkita katta bosqichdan o'tadi, ulardan biri «Men» jamiyat bilan nuqtai nazardan iborat bo'lib, quyidagi yosh pallalarini qamrab oladi:

- 1) ilk bolalik - 1 yoshdan 3 yoshgacha;
- 2) kichik maktab yoshi davri - 6 yoshdan 9 yoshgacha;
- 3) katta maktab yoshi davri- 15 yoshdan 17 yoshgacha.

Shaxs kamolotidagi ikkinchi nuqtai nazar – «Men va jamiyat» deb nomlanib, quyidagi yosh bosqichlaridan iborat.

- 1) go'daklik - tug'ilganidan 1 yoshgacha;
- 2) maktabgacha davr - 3 yoshdan 6 yoshgacha;
- 3) o'smirlik-10 yoshdan 15 yoshgacha.

D.I.Feldshtsin boshqa tadqiqotchilardan farqli ravishda o'smirlik davrini uch bosqichga ajratadi:

Birinchi bosqich (10-11 yosh) o'ziga munosabatni kashf qilishdan iborat bo'lib, o'zini shaxs sifatida his qilish va qat'iy qarorga kelish bilan yakunlanadi.

Ikkinchi bosqich (12-13 yosh) bir tomondan o'zini shaxs sifatida tan olish, ikkinchi tomondan o'ziga salbiy munosabatda bo'lishdir.

Uchinchi bosqich (14-15 yosh) tezkorlik, o'zini-o'zi baholashga moyillik bilan farqlanadi. Bolalarda «Men jamiyat bilan» nuqtai nazari ilk bolaliq kichik maktab yoshi, katta maktab yoshi davrlarida faol va keng tus oladi, faoliyatning amaliy-predmetli jihatlari jadal o'sish jarayonida bo'ladi. Ularda «Men va jamiyat» nuqtai nazari vujudga kelishi maktabgacha va o'smirlik davrlariga to'g'ri kelib, ularning ijtimoiy xatti-harakat normalarini, qoidalarini o'zlashtirishlari va boshqa shaxslar bilan munosabat o'rnatishlari, o'zaro muloqotga kirishishlari bilan ifodalanadi. Ana

shu murakkab jtimoiy-psixologik harakatlarga asoslangan. D.I.Feldshtsin bolaning ijtimoiy o'sishdagi jamiyatga munosabatini asosiy (bosh) va oraliq munosabatlarga ajratadi. Bolada jamiyatga munosabatning shakllanishi ijtimoiylashuv, individuallashuvning tarkibiy qismlarini egallash va bir davrdan ikkinchi davrga o'tish orqali amalga oshadi. Asosiy (bosh) munosabat - insonning kamol topishida keskin iljish nuqtalari paydo bo'lishi, ichki sifat o'zgarishlari vujudga kelishi va yangi xislatlar tarkib topishining mahsulidir.

Shuni alohida ta'kidlash kerak-ki, D.I.Feldshtsinning yosh davrlariga ajratish nazariyasi ontogenezdagi barcha psixologik holat va fazilatlarni ifodalash imkoniyatiga ega emas, ammo u ta'lim-tarbiyaning sifatini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatishi bilgn amaliy ahamiyat kasb etadi.

Umuman psixologlar tomonidan yosh davrlarini tabaqalashtirishning puxta ilmiy-metohologik negizga ega bo'lgan qator nazariyalari ishlab chiqilgan. Ular ontogenetik qonuniyatlarni yoritishga katta hissa bo'lib qo'shildi, amaliy va nazariy muammolarni hal qilishda keng qo'llanmoqda. Ammo hozir ontogenezni to'la yoritishga xizmat qila oladigan nazariyani yaratish zarurati tug'ildi.

1.3. Ijtimoiy ta'sirlarning shaxs tomonidan anglanishi.

Ijtimoiy normalar, sanksiyalar, rollar ijtimoiy mehanizmlar sifatida shaxs xulq - atvorini ma'lum ma'noda boshqarib, muvofiklashtirib turishga yordam beradi. Lekin insonning komilligi, uning axlok - ijtimoiy normalar doirasidagi maqbul harakati uning o'ziga ham bog'liqdir. Odamning o'z - o'zini anglashi, bilishi va o'z ustida ishlashi avvalo uning diqqati, ongi bevosita o'ziga, o'z ichki imkoniyatlari, qobiliyatlari, hissiy kechinmalariga qaratilishini taqozo etadi. Ya'ni, ijtimoiy xulq - shaxs tomonidan uni o'rab turgan odamlar, ularning xulq - atvorlariga e'tibor berishdan tashqari, o'zining shaxsiy harakatlari va ularning oqibatlarini muntazam tarzda tahlil qilib borish orqali, rollarni muvofiklashtirishni ham taqozo etadi.

Shaxsning o'zi, o'z xulq - atvori xususiyatlari, jamiyatdagi mavqeini tasavvur qilishidan hosil bo'lgan obraz - «Men» - obrazi deb atalib, uning kanchalik adekvatligi va reallikka yaqinligi shaxs barkamolligining mezonlaridan hisoblanadi.

«Men» - obrazining ijtimoiy psixologik ahamiyati shundaki, u shaxs tarbiyasining va tarbiyalanganligining muhim omillaridan hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan olib qaralganda, tarbiya shaxsning o'zi va o'z sifatleri to'g'risidagi tasavvurlarining shakllanishi jarayonidir, deb ta'rif berish mumkin. Demak, har bir inson o'zini, o'zligini kanchalik aniq va to'g'ri bilsa, tasavvur qilolsa, uning jamiyat normalariga zid harakat qilish extimoli ham shunchalik kam bo'ladi, ya'ni u tarbiyalangan bo'ladi.

O'z - o'zini anglash, o'zidagi mavjud sifatlarni baholash jarayoni ko'pincha konkret shaxs tomonidan ogir kechadi, ya'ni inson tabiati shundayki, u o'zidagi o'sha jamiyat normalariga to'g'ri kelmaydigan, no'maqul sifatlarni anglamaslikka, ularni «yashirishga» harakat qiladi, hattoki, bunday tasavvur va bilimlar ongsizlik sohasiga sikib chiqariladi (avstriyalik olim Z. Freyd nazariyasiga ko'ra). Bu ataylab qilinadigan ish bo'lmay, u har bir shaxsdagi o'z shaxsiyatini o'ziga xos himoya qilish mehanizmidir. Bunday himoya mehanizmi shaxsni ko'pincha turli xil yomon asoratlardan, hissiy kechinmalardan asraydi. Lekin shuni alohida

ta'kidlash lozimki, «Men» - obrazining ijobiy yoki salbiyligida yana o'sha shaxsni o'rab turgan tashqi muhit, o'zgalar va ularning munosabati katta rol o'ynaydi. Odam o'zgalarga qarab, guyoki oynada o'zini ko'rganday tasavvur qiladi. Bu jarayon psixologiyada **refleksiya** deb ataladi. Uning mohiyati - aynan o'ziga o'xshash odamlar obrazi orqali o'zi to'g'risidagi obrazni shakllantirish, jonlantirishdir. Refleksiya «Men» - obrazi egasining ongiga taalluqli jarayondir. Masalan, ko'chada bir tanishingizni uchratib qoldingiz. Siz tinmay unga o'z yutuqlaringiz va mashg'ulotlaringiz haqida gapirmoqdasiz. Lekin gap bilan bo'lib, uning qaergadir shoshayotganligiga e'tibor bermadingiz. Shu narsani siz uning betoqatlik bilan sizni tinglayotganligidan, hayoli boshqa yerda turganligidan bilib qolasiz va shu orqali ayni shu paytda «maxmadona, lakmarok» bo'lib qolganingizni sezasiz. Keyingi safar shu o'rtog'ingiz bilan uchrashganda, oldingi hatoga yo'l kuymaslik uchun «O'rtoq, shoshmayapsanmi?» deb so'rab ham qo'yasiz. Ana shu ilgarigi refleksiyaning natijasidir. Ya'ni, suhbatdosh o'rniga turib, o'zingizga tashlangan nazar («men unga qanday ko'rinyapman?») - refleksiyaadir.

Shaxsning o'zi haqidagi obrazi va o'z - o'zini anglashi yosh va jinsiy o'ziga xoslikka ega. Masalan, o'ziga nisbatan o'ta qiziquvchanlik, kim ekanligini bilish va anglashga intilish ayniksa, o'smirlik davrida rivojlanadi. Bu davrda paydo bo'ladigan «kattalik» hissi qizlarda ham, o'smir yigitchalarda ham nafaqat o'ziga, balki o'zgalar bilan bo'ladigan munosabatlarini ham belgilaydi. Qizlardagi «Men» - obrazining yaxshi va ijobiy bo'lishi ko'prok bu obrazning ayollik sifatlarini o'zida mujassam eta olishi, ayollik hislatlarining o'zida ayni paytda mavjudligiga bog'liq bo'lsa, yigitlardagi obraz ko'prok jismonan barkamollik mezonlari bilan nechog'li uygun ekanligiga bog'liq bo'ladi. Shuning uchun ham o'smirlikda o'g'il bolalardagi bo'yning pastligi, muskullarning zaifligi va shu asosda qurilgan «Men» - obrazi qator salbiy taassurotlarni keltirib chiqaradi. Qizlarda esa tashqi tarafdin go'zallikka, kelishganlik, odob va ayollarga xos qator boshqa sifatlarning bor - yo'qligiga bog'liq xolda «Men» obrazi mazmunan idrok qilinadi. Qizlarda ham ortiqcha vazn yoki terisida paydo bo'lgan ayrim toshmalar yoki shunga o'xshash

fiziologik nuqsonlar kuchli salbiy emotsiyalarga sabab bo'lsa - da, baribir, chiroyli kiyimlar, taqinchoqlar yoki sochlarning o'ziga xos turmagi bu nuqsonlarni bosib ketadigan omillar sifatida qaraladi.

o'z-o'zini boshqarish mehanizmlari orasida psixologik nuqtai nazardan o'z-o'zi bilan amalga oshiriladigan **ichki dialog** alohida o'rin tutadi. O'z-o'zi bilan dialog - oddiy til bilan aytganda, o'zi bilan o'zi gaplashishdir. Aslida bu qobiliyat bizning boshqalar bilan amalga oshiradigan tashqi dialoglarimiz asosida rivojlanadi, lekin aynan ichki dialog muhim regulyativ rol o'ynaydi. Ye. Klimov bunday dialogning uch bosqichini ko'rsatib o'tadi. 4 - jadvalda shaxs ichki dialogining bosqichlari va har bir bosqichga xos bo'lgan belgilar keltirilgan.

Jadval 4.

Shaxs autodialogining muhim belgilari.

Ichki dialogning shakllanganlik darajasi	Bosqichlari	Ichki dialogning darajaviy belgilari (autokommunikatsiya)
Oliy	6 bosqich	- Shaxsiy mazmundagi dialog (o'zidagi shaxsiy sifatlarni muhokama qilish, shaxsiy mulohaza)
daraja	5 bosqich	- Hodisa va narsalarga bog'liq bo'lgan sifatlarning xususidagi ichki dialog
O'rta	4 bosqich	- Shaxsiy sifatlarning muhokamasiga qaratilgan savollar o'ziga talablar
daraja	3 bosqich	- Boshqalarning baholari ta'siridagi ichki mulohazalar, shaxsiy ahamiyat kasb etgan o'zgaralar fikrlari asosida ichki dialog
Quyi	2 bosqich	- Shaxsiy sifatlarga aloqador bo'lmagan o'zgaralar fikrlari asosidagi dialog (hodisa va narsalarga aloqador

		fikrlar)
daraja	1 bosqich	- Kimdir nima haqidadir gapirish mumkin bo'lgan holatlar yuzasidan tasavvurlar, lekin aniq fikr yoki munosabat yo'q. Autokommunikatsiyaga xojat yo'q.

Demak, shaxsning qanday sifatlarga ega ekanligi, undagi baholarning ob'ektivligiga bog'liq tarzda o'z- o'zi bilan mulokatga kirishib, jadvaldagiga muvofiq shaxs o'zini nazorat qila oladi. Shuning uchun ham hayotda shunday kishilar uchraydiki, katta majlisda ishi tanqidga uchrasa ham, o'ziga xolis baho berib, kerakli to'g'ri xulosalar chiqara oladi, shunday odamlar ham borki, arzimagan hatolik uchun o'z «ich - etini yeb tashlaydi». Bu o'sha ichki dialogning har kimda har xil ekanligidan darak beruvchi faktlardir.

2.BOB. Xulq-atvor va odatni shakllantirish - shaxsni tarbiyalashning asosiy yo‘nalishi sifatida .

2.1. Xulq – atvor va odatlarni shakllanishining psixologik tavsifi.

Shaxsga taallukli bo‘lgan eng muhim tasnif ham uning jamiyatdagi murakkab ijtimoiy munosabatlarga bevosita aloqadorlik, ijtimoiy faoliyatga nisbatan ham ob‘ekt, ham sub‘ekt bo‘lishlikdir.

Shaxsga taallukli bo‘lgan fazilatlardan eng muhimi shuki, u shu tashqi, ijtimoiy ta’sirlarni o‘z ongi va idroki bilan qabul qilib, so‘ngra shu ta’sirlarning sub‘ekti sifatida faoliyat ko‘rsatadi. Oddiy qilib aytganda, inson bolasi ilk yoshlikdanok «mening hayotim», «bizning dunyo» degan ijtimoiy muhitga tushadi. Bu muhit o‘sha biz bilgan va har kuni his qiladigan siyosat, huquq, axlok olamidir. Bu muhit - kelishuvlar, tortishuvlar, hamkorliklar, an’analar, udumlar, turli xil tillar olami bo‘lib, undagi ko‘plab qoidalarga ko‘pchilik mutlok kushiladi, ba’zilar kisman kushiladi. Bu shunday qoidalar va normalar olamiki, ularga bo‘ysunmaslik jamiyat tomonidan koralanadi, ta’kiblanadi. Shulardan kelib chiqadigan xulosa shuki, shaxs jamiyatga nisbatan barcha tartib - qoidalarni qabul qiluvchi sub‘ekt bo‘lsa, jamiyat - ijtimoiy intizom va tartibning, madaniyatning mufassal ko‘rinishidir.

Shaxs ijtimoiy xulqiga turli tashqi kuchlar ta’sir qiladi : siyosiy, mafkuraviy, iqtisodiy, ma’naviy, axlokiy va boshqalar. Bu ta’sirotlar mohiyatan aslida jamiyat a’zolari bo‘lmish shaxslar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning ayrim alohida yo‘nalishlarini belgilab beradi.

Shunday qilib, shaxs turli ijtimoiy munosabatlar tizimi ta’sirida bo‘ladi va ko‘plab ijtimoiy institutlar (oilalar, mahallalar, o‘quv maskanlari, mehnat kollektivlari, norasmiy tashkilotlar, din, san’at, madaniyat va boshk.) bilan bog‘liq bo‘ladi. Masalan, shaxsdagi turli g‘oyalar, fikrlar va mafkura mafkuraviy munosabatlar tizimi ta’sirida shakllanib, ular bevosita oilalar, bog‘cha, maktab va boshqa o‘quv va tarbiya muassasalari orqali ongga singdiriladi. Agar bu ta’sir uning e’tiqodi darajasida kutarilsa, va unda yana yangidan - yangi fikrlar va g‘oyalarning paydo bo‘lishi va o‘sishiga olib kelsa, shaxs taraqqiyoti jarayonida shunday faoliyat

sohasini tanlaydiki, o'z qobiliyatlari, malaka va ko'nikmalarini rivojlantira borib, ziyoli sifatida yo o'qituvchi, yoki vrach, yoki olim, kashfiyotchi, muhandis bo'lib, elu - yurtiga xizmat qiladi.

Iqtisodiy munosabatlar ham shaxs ongi va uning insoniy xususiyatlari shakllanishida katta rol o'ynaydi. Masalan, bosqichma - bosqich bozor munosabatlariga o'tayotgan O'zbekiston sharoitini oladigan bo'lsak, yangicha iqtisodiy o'zgarishlar, bozor, rakobat, legalizatsiya va shunga o'xshash yangiliklar har bir shaxsning moddiy boyliklar va ularga bo'lgan shaxsiy munosabatlarida aks etib, uning iqtisodiy ongi, tafakkuri va iqtisodiy xulqi normalarini belgilaydi. Ijtimoiy norma - shaxs hayotida shunday kategoriyaki, u jamiyatning o'z a'zolari xulq - atvoriga nisbatan ishlab chiqqan va ko'pchilik tomonidan e'tirof etilgan harakatlar talablaridir. Masalan, o'zbeklar uchun biror xonaga kirib kelgan insonning kim bo'lishidan qat'iy nazar, «Assalomu alaykum» deb kelishi - norma; o'quvchining o'qituvchi bergan topshiriqlarni bajarishi lozimligi - norma; xotinning er hurmatini o'rniga kuyishi, qaynonaga gap qaytarmaslik - norma; avtobusda yoki boshqa jamoat transportida kichikning kattalarga, nogironlarga o'rin bo'shatishi - norma va hakozi. Bu normalarni ayrim - alohida odam ishlab chiqmaydi, ular bir kun yoki bir vaziyatda ham ishlab chiqilmaydi. Ularning paydo bo'lishi ijtimoiy tajriba, hayotiy vaziyatlarda ko'pchilik tomonidan e'tirof etilganligi fakti bilan xarakterlanadi, har bir jamiyat, davr, millat va ijtimoiy guruh psixologiyada muxrlanadi.

Ijtimoiy normalarning u yoki bu davrda, u yoki bu toifa vakili bo'lmish shaxs tomonidan qay darajada bajarilishi yoki unga amal qilinayotganligi ijtimoiy sanksiyalar orqali nazorat qilinadi. Ijtimoiy sanksiyalar - normalarning shaxs xulqida namoyon bo'lishini nazorat qiluvchi jazo va rag'batlantirish mehanizmlari bo'lib, ularning borligi tufayli biz har bir alohida vaziyatlarda ijtimoiy xulq normalarini buzmaslikka, jamoatchilikning salbiy fikri ob'ektiga aylanib qolmaslikka harakat qilamiz. Masalan, yuqoridagi misolda, agar jamoat transportida katta muysafid kishiga o'rin bo'shatishni norma deb qabul qilmagan o'smirda nisbatan ko'pchilikning ayblov ko'zi bilan qarashi, yoki og'zaki tanbex

berishi, juda kam xollarda o'zini bebosh tutayotgan o'smirning kulidan to'tib, nima qilish kerakligini o'rgatib, «ko'zini moshday qilib ochib qo'yish» ijtimoiy sanksiyaning hayotdagi bir ko'rinishidir.

Har bir alohida shaxs jamiyat tomonidan ishlab chiqilgan va qabul qilingan ijtimoiy normalar va sanksiyalarni u yoki bu ijtimoiy rollarni bajarishi mobaynida xulqida namoyon etadi. Rol - shaxsga nisbatan shunday tushunchaki, uning konkret hayotiy vaziyatlardagi huquq va burchlaridan iborat harakatlari majmuini bildiradi. Masalan, talaba rolini oladigan bo'lsak, uni bajarish - u yoki bu oliy o'quv yurtida tahsil olish, uning moddiy bazasidan foydalanish, kutubxonasiga a'zo bo'lish, stipendiya olib, ma'muriyatning ijtimoiy himoyasida bo'lish kabi qator huquqlar bilan birgalikda o'sha oliygox ichki tartib - intizomi normalariga so'zsiz bo'ysunish, darslarga o'z vaqtida kelish, reyting baholov talablari doirasida kundalik o'zlashtirish normalarini bajarish, amaliyotda bo'lish, dekanatning bergan jamoatchilik topshiriqlarini ham bajarish kabi qator burchlarni ham o'z ichiga oladi. Bu rol uning uyga borgach bajaradigan «farzandlik» roli (ota va ona, yaqin qarindoshlar oldida) talab va imtiyozlaridan farq qiladi. Ya'ni, konkret shaxsning o'ziga xosligi va qaytarilmasligi u bajaradigan turli - tuman ijtimoiy rollarning xarakteridan kelib chiqadi. Shunga ko'ra, kimdir «tartibli, ba'mani, fozil, axlokli va odobli» deyilsa, kimdir - be'mani, bebosh, o'zgaruvchan, ikkiyuzlamachi (ya'ni, bir sharoitda juda qobil, boshqa yerda - betartib) degan hayotiy mavqega ega bo'lib qoladi.

Hayotda shaxs bajaradigan ijtimoiy rollar ko'pligi sababli ham, turli vaziyatlardagi uning mavqei - statusi ham turlicha bo'lib qoladi. Agar biror rol shaxs ijtimoiy tasavvurlari tizimida uning o'zi uchun o'ta ahamiyatli bo'lsa (masalan, talaba roli), u boshqa rollarni unchalik qadrlamasligi va oqibatda, o'sha vaziyatda boshqacharoq, noqulay va noboprok mavqeni egallab qolishi mumkin. Qolaversa, rollarning ko'pligi ba'zan rollar ziddiyatini ham keltirib chiqarishi mumkinki, oqibatda - shaxs ichki ruhiy qiyinchiliklarni ham boshdan kechirishi mumkin. Masalan, sirdan taxsil olayotgan talaba sessiya paytida ishlab turgan korxonasiga komissiya kelishi va uning faoliyatini tekshirayotganligini bilib, ruhiy

azobga tushadi - bir tomondan, talabachilik va uning talablari, ikkinchi tomondan - kasbdoshlar oldida uyalib qolmaslik uchun har kuni ishxonaga ham borib kelish.

Hozirgi ijtimoiy - iqtisodiy vaziyat va bozor munosabatlari sharoitidagi rakobat muhiti shaxsdan bir vaqtning o'zida qator qobiliyatlar va malakalarni talab qilmoqdaki, ayniksa, yoshlar o'zgaruvchan sharoitlarga tezrok moslashish uchun ba'zan bir - biriga zid hislatlarni ham xulqda namoyon qilishga majbur bo'lishmoqda. Masalan, yosh oila boshligi, talaba, ota - onalarga moddiy jihatdan qaram bo'lmaslik uchun, bir vaqtning o'zida ham itoatkor, intizomli talaba va ishdan keyin esa - chaqqon va uddaburon, tadbirkor, tijoratchilik bilan shug'ullanishga majbur bo'lishi mumkin. Bu holat tabiiy, shaxsdan kuchli iroda, doimiy intiluvchanlik va o'z ustida muttasil ishlashni talab qiladi.

2.2. Ijtimoiy xulq motivlari va shaxs motivatsiyasi.

Jamiyat bilan doimiy munosabatni ushlab turuvchi, o'z-o'zi ni anglab, har bir harakatini muvofiklashtiruvchi shaxsga xos bo'lgan eng muhim va umumiy xususiyat - bu uning faolligidir. Inson faolligi «harakat», «faoliyat», «xulq» tushunchalari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, shaxs va uning ongi masalasiga borib takaladi. Shaxs aynan turli faolliklar jarayonida shakllanadi, o'zligini namoyon qiladi ham. Demak, faollik yoki inson faoliyati passiv jarayon bo'lmay, u ongli ravishda boshqariladigan faol jarayondir.

Har qanday sharoitda ham barcha harakatlar ham ichki-psixologik, ham tashqi - muvofiqlik nuqtai nazaridan ong tomonidan boshqarilib boradi. Har qanday faoliyat tarkibida ham aqliy, ham jismoniy - motor harakatlar mujassam bo'ladi. Inson xulq-atvori nomoyon bo'ladi.

Shaxsning jamiyatdagi ijtimoiy xulqi va o'zini qanday tutishi, egallagan mavqei ham sababsiz, o'z - o'zidan ro'y bermaydi. Faoliyatning amalga oshishi va shaxs xulq - atvorini tushuntirish uchun psixologiyada «motiv» va «motivatsiya» tushunchalari ishlatiladi.

«Motivatsiya» tushunchasi «motiv» tushunchasidan kengroq ma'no va mazmunga ega. **Motivatsiya** - inson xulq-atvori, uning bog'lanishi, yo'nalishi va faolligini tushuntirib beruvchi psixologik sabablar majmuini bildiradi. Bu tushuncha u yoki bu shaxs xulqini tushuntirib berish kerak bo'lganda ishlatiladi, ya'ni: «nega?», «nima uchun?», «nima maqsadda?», «qanday manfaat yo'lida?» degan savollarga javob qidirish - motivatsiyani qidirish demakdir. Demak, u xulqning motivatsion tasnifini yoritishga olib keladi.

Shaxsning jamiyatda odamlar orasidagi xulqi va o'zini tutishi sabablarini o'rganish tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan narsa bo'lib, masalani yoritishning ikki jihati farqlanadi: **a)** ichki sabablar, ya'ni hatti-harakat egasining sub'ektiv psixologik xususiyatlari nazarda tutiladi (motivlar, ehtiyojlar, maqsadlar, muljallar, istaqlar, qiziqishlar va xokazolar); **b)** tashqi sabablar - faoliyatning tashqi shart-sharoitlari va holatlari. Ya'ni, bo'lar ayni konkret holatlarni kelib chiqishiga sabab bo'ladigan tashqi stimullardir.

Shaxs xulq-atvorini ichkaridan, ichki psixologik sabablar tufayli boshqarish odatda shaxsiy dispozitsiyalar ham deb ataladi. Ular shaxs tomonidan anglanishi yoki anglanmasligi ham mumkin. Ya'ni, ba'zan shunday bo'ladiki, shaxs o'zi amalga oshirgan ishi yoki o'zidagi o'zgarishlarga nisbatan shakllangan munosabatning haqiqiy sababini o'zi tushunib yetmaydi, «Nega?» degan savolga «O'zim ham bilmay qoldim, bilmayman», deb javob beradi. Bu anglanmagan dispozitsiyalar yoki ustanovkalar deb ataladi. Agar shaxs biror kasbga ongli tarzda qiziqib, uning barcha sir-asrorlarini egallash uchun astoydil harakat qilsa, bunda vaziyat boshqacharoq bo'ladi, ya'ni, dispozitsiya anglangan, ongli hisoblanadi.

Shu nuqtai nazardan motiv - konkretrok tushuncha bo'lib, u shaxsdagi u yoki bu xulq-atvorga nisbatan turgan moyillik, hozirlikni tushuntirib beruvchi sababni nazarda tutadi. Mashhur nemis olimi Kurt Levin motivlar muammosi, ayniksa, shaxsdagi ijtimoiy xulq motivlari borasida katta keng hamrovli tadqiqotlar olib borib, shu narsani aniqlaganki, har bir odam o'ziga xos tarzda u yoki bu vaziyatni idrok qilish va baholashga moyil bo'ladi. Shunisi ajablanarliki, o'sha bir konkret vaziyat xususidagi turli shaxslarning baholari ham turlicha bo'ladi. Bundan tashqari, bir shaxsning o'zi ham o'zidagi holat, qayfiyatga bog'liq xolda bir xil vaziyatni alohida xollarda turlicha idrok qilishga moyil bo'larkan. Shuning uchun ham odamning ayni paytdagi real harakatlarini o'sha ma'lum sharoitdagi ichki va tashqi stimullarga uning bergan bahosi yoki reaksiyasi sifatida qaramay, balki unda shunga o'xshash holatlarni idrok qilishga ichki bir hozirlik - dispozitsiyaning mavjudligi bilan tushuntirish to'g'rirok bo'ladi. Shu ma'noda shaxs xulqining motivatsiyasi turli sharoitlardan orttirilgan tajribaga tayangan, ongli tahlillar, hattoki, ijtimoiy tajriba normalarining ta'sirida shakllanadigan sabablar kompleksini o'zichiga oladi. Masalan, texnika oliygohlarida: «Materiallarning qarshiligi» nomli kurs bor deylik. Shu kursni o'zlashtirish va undan sinovdan utish ko'pchilikka osonlikcha ro'y bermaydi. Hali kurs boshlanmasdanok, yosh talabalarda shu kurs va uning talablariga nisbatan shunday ustanovka shakllanadiki, albatta, bu kurs qiyin, uni olib boruvchi o'qituvchi o'ta talabchan, kattiqqo'l va hokazo degan. Bunday motivatsiya mana necha avlod

talabalar boshdan kechirayotgan holat. Endi konkret shaxsning dars jarayoni boshlangan keyingi harakatlari konkret motivlar bilan izoxlanadi va tirishqoq talaba uchun bu fan ham boshqa fanlar qatori tinimsiz izlanish, o'z vaqtida darslarni tayyorlashni talab qilsa, boshqasi uchun (dangasaroq talaba uchun) bu darsdan keyin dars yo'q va u qachon shu semestr tugashini kutib harakat qiladi.

Har qanday motivlarning orkasida shaxsning ehtiyojlari yotadi. Ya'ni, maqsadli hayotda shaxsda avval u yoki bu ehtiyojlar paydo bo'ladi va aynan ularning tabiati va zaruratiga bog'liq tarzda xulq motivlari namoyon bo'ladi. Misol uchun talabaning o'quv faoliyatini olish mumkin. Bilim olish maqsadi bilim, ilm olish, qiziquvchanlik ehtiyojini paydo qiladi. Bu ehtiyoj taraqqiyotning ma'lum bir davrida, masalan, bog'cha yoshidan boshlab qoniqtirila boshlaydi. Bolaga sotib olib berilgan kitoblar, daftar va boshqa o'quv qurollari, ma'lum ta'lim maskanida tashkil etilgan shart - sharoitlar va u yerdagi bevosita bilim olishga qaratilgan faoliyatning o'zi, bola uchun motiv o'rnini bosadi. Yana bir oddiy misol: qo'lingizda kitob bor. Siz hali uni o'qishni boshlamadingiz. Lekin o'qish istagi bor, shu istakning ortida esa, o'sha mazmunni bilish va uning tagiga yetish ehtiyoji turadi. Rus olimi R. Nemov shaxsdagi motivatsion sohani quyidagicha tasavvur qiladi. Umuman, har qanday shaxsdagi mavjud ehtiyojlarni ikki guruhga bo'lish mumkin:

1. Biologik ehtiyojlar - bu - fiziologik (tashnalik, ochlik, uyku), jinsiy, moslashuv ehtiyojlari.

2. Ijtimoiy ehtiyojlar - bu - mehnat qilish, bilish, estetik va axlokiy-ma'naviy ehtiyojlar..

Ehtiyojlarni biologik hamda ijtimoiy turlarga bo'lganimiz bilan shu narsani unutmasligimiz lozimki, shaxsdagi har qanday ehtiyojlar ham ijtimoiylashgan bo'ladi, ya'ni, ular o'sha jamiyat va muhitdagi qadriyatlar, madaniy normalar va insonlararo munosabatlar xarakteriga bog'liq bo'ladi. Masalan, eng tabiiy va tushunarli hisoblangan bizning yemishga - ovqatga bo'lgan ehtiyojimizni olsak, u ham konkret muhitga qarab turlicha harakatlarni keltirib chiqaradi. Yana misol uchun, tuy marosimlari yoki juda tukin dasturxon atrofida o'tirgan odam nima

uchun shunchalik ko'p ovqat iste'mol qilib yuborganini bilmay qoladi. Agar bu tabiat qo'yni yoki paxta dalasidagi hashar bo'lsa-chi, bir burda issiq non ham butun tanaga rohat baxsh etuvchi malham bo'lib, ochlikni bilintirmaydi. Kamtarona dasturxondan ovkat yeb o'rgangan kishi oz-oz yeyishga o'rgansa, yoshligidan normadan ortiq yeb o'rgangan odam vrach oldiga borib, o'zi uchun ozdiruvchi dori-darmon so'rasa so'raydiki, lekin uyda o'zi yemishini nazorat qilishi kerakligini bilmaydi. Demak, bu ham madaniyatga, etikaga, oila muhitiga bevosita bog'liq narsa ekan -da.

Umuman shaxs ijtimoiy xulqi motivi haqida gap ketganda, uning ikki tomoni yoki elementi ajratiladi: **harakat dasturi va maqsad**. Harakat dasturi maqsadga erishish vositalariga aniqlik kiritadi. Shuning uchun ham dasturda nazarda tutilgan vositalar maqsadga erishishni oklashi kerak, aks xolda dastur hech narsa bermaydi. Masalan, ba'zi ota-onalar farzandlarini yaxshi tarbiyalash va undan ideallaridagi shaxs yetishib chiqishini orzu qilib, uning oldiga juda ogir tarbiyaviy shartlarni qo'yadilar, bola erkinligi bo'g'iladi, u qat'iy nazorat muhitida ushlanadi. Oqibatda bola keyinchalik boshqarib bo'lmaydigan, qaysar, unchamuncha tashqi ta'sirga berilmaydigan bo'lib qolib, har qanday boshqa ijtimoiy sharoitda qiynaladigan bo'lib qoladi. Shuning uchun ham motiv har doim anglangan, ehtiyojlar muvofiqlashtirilgan va maqsadlar va unga yetish vositalari aniq bo'lishi kerak. Shundagina ijtimoiy xulq jamiyatga mos bo'ladi. Turli kasb egalari faoliyati motivlarini o'rganishda motivlar xarakterini bilish va ularni o'zgartirish muammosi ahamiyatga ega. Shunday motivlardan biri turli xil faoliyat sohalarida **muvaffaqiyatga erishish motivi** bo'lib, bunday nazariyaning asoschilari amerikalik olimlar D. Makklelland, D. Atkinson va nemis olimi X. Xekhauzenlar hisoblanadi. Ularning fikricha, odamda turli ishlarni bajarishini ta'minlovchi asosan ikki turdagi motiv bor: **muvaffaqiyatga erishish motivi** hamda **muvaffaqiyatsizliklardan qochish motivi**. Odamlar ham u yoki bu turli faoliyatlarni kirishishda qaysi motivga mo'ljall qilishlariga qarab farq qiladilar. Masalan, faqat muvaffaqiyat motivi bilan ishlaydiganlar oldindan ishonch bilan shunday ish boshlaydilarki, nima qilib bo'lsa ham yutuqqa erishish ular uchun oliy

maqsad bo'ladi. Ular hali ishni boshlamay turib, yutuqni kutadilar va shunday ishni amalga oshirishsa, odamlar ularning barcha harakatlarini ma'qullashlarini biladilar. Bu yo'lda ular nafaqat o'z kuch va imkoniyatlarini, balki barcha tashqi imkoniyatlar - tanish - bilishlar, mablag' kabi omillardan ham foydalanadilar.

Boshqacha xulq - atvorni muvaffiqiyatsizlikdan qochish motiviga tayangan shaxslarda kuzatish mumkin. Masalan, ular birinchilardan farqli, ishni boshlashdan avval nima bo'lsa ham muvaffiqiyatsizlikka duchor bo'lmaslikni uylaydilar. Shu tufayli ularda ko'proq ishonchsizlik, yutuqqa erishishga ishonmaslik, pessimizmga o'xshash holat kuzatiladi. Shuning uchun bo'lsa kerak, oxir - oqibat ular baribir muvaffiqiyatsizlikka uchrab, «O'zi sira omadim yurishmaydigan odamman-da» degan xulosaga keladilar. Agar birinchi toifali shaxslar bir ishni muvaffiqiyatli tugatgach, kutarinki ruh bilan ikkinchi ishga kirishishsa, ikkinchi toifa vakillari, har qanday ishni yakunlagandan so'ng, uning natijasidan qat'iy nazar, ruhan tushkunlikka tushadilar va ogrinish hissi bilan boshqa ishga kirishadilar. Bu o'rinda *talabchanlik* degan sifatning roli katta. Agar muvaffiqiyatga yo'nalgan shaxslarning o'zlariga nisbatan qo'ygan talablari darajasi ham yuqori bo'lsa, ikkinchi toifa vakillarining talablari aksincha, past bo'ladi. Bunday tashqari har birimizdagi o'zimizdagi real qobiliyatlar to'g'risidagi tasavvurlarimiz ham ushbu motivlarning faoliyatdagi o'rniga ta'sir ko'rsatadi. Shunday qilib, motivlar tizimi bevosita shaxsning mehnatga, odamlarga va o'z - o'ziga munosabatlaridan kelib chiqadi va undagi xarakter xususiyatlarini ham belgilaydi. Ularning har birimizda real shart-sharoitlarda namoyon bo'lishini biror mas'uliyatli ish oldidan o'zimizni tutishimiz va muvaffaqiyatlarga erishishimiz bilan baholasak bo'ladi. Masalan, mas'uliyatli imtixon topshirish jarayonini olaylik. Ba'zi talabalar imtixon oldidan juda qayguradilar, hattoki, kurkadilar ham. Ular uchun imtixon topshirish juda katta tashvishday. Boshqalar esa bu jarayonni bosiklik bilan boshdan kechirib, ichidan hayajonlanayotgan bo'lsalar ham, buni boshqalarga bildirmaydilar. Yana uchinchi toifa kishilari umuman begam bo'lib, sira koyimaydilar. Tabiiy, shunga muvofiq tarzda, har bir toifa vakillari ishining muvaffaqiyati va faoliyatning samarasi turlicha bo'ladi. Bunga har bir shaxsdagi

da'vogarlik darajasi ham ta'sir qiladi. Da'vogarlik darajasi yuqorirok bo'lganlar bilgan - bilmaganini isbot qilishga o'rinsalar, ana shunday darajasi pastlar bor bilganini ham yaxshi aytib berolmay, yana o'qituvchi bilan tortishmaydilar ham.

Shuning uchun ham har birimiz ijtimoiy faoliyat motivlaridan tashqari, shaxsiy hislatlarimizni ham bilishimiz va ongli tarzda xulqimizni boshqara olishimiz kerak.

2.3.Shaxs tarbiyasi jarayonida xulq-atvor va odatlarni shakllanishini.

Psixologik hodisalar sub'ektiv kechinmalar aks etiladigan narsa va hodisalarning miyamizdagi obrazlari shaklida ro'y beradi. Ammo, barcha sub'ektiv psixik hodisalar sirtida, organizmizning xilma-xil o'zgarish va harakatida: mimika, imo-ishora, nutq pantomimikada o'z ifodasini topadi.

Odamning psixik hayoti organizm harakatlarida o'z ifodasini topadi, shu harakatlar yig'indisi esa xulq-atvor deb ataladi. Insonning psixologik xususiyatlari, sifatleri deganda har bir konkret odamning, ya'ni shaxsning o'ziga xos bo'lgan xususiyatlari tushuniladi. Ma'lumki, har bir odamning o'z ehtiyojlari, qiziqishlari, ishonch - e'tiqodi, malaka va odatlari, qobiliyati, iste'dodi, temperament tipi va xarakter xislatlari bo'ladi. Odam shaxs bo'lib dunyoga kelmaydi, balki u ijtimoiy taraqqiyot jarayonida shaxslik belgilariga ega bo'la boradi. Hadisi sharifda aytilganidek, har bir go'dak islom tabiatida tug'iladi, so'ng ota-onasi uni yo yahudiy, yo nasroniy, yo majusiy qiladi. Demak, odamning shaxsiy xususiyatlarini u mansub bo'lgan ijtimoiy-tarixiy sharoitdan, uning bu sharoitda egallagan mavqeidan ajralgan holda qarash mumkin emas.

Tarixiy sharoit va ijtimoiy muhit ta'sirida odamning shaxslik mohiyatini ifodalovchi psixologik belgilar vujudga keladi. Bu xususiyatlar shaxsning ijtimoiyligi, ongi, o'z-o'zini anglashi, aniq maqsad sari intilish ehtiyojlari, e'tiqodi, ideali va dunyoqarashi kabilardir.

Amaliy faoliyat jarayonida shaxsning boshqalar bilan bo'lgan munosabatlari yig'indisi uning ijtimoiyligidir. Odam boshqalar bilan munosabatda bo'lgandagina unda ong paydo bo'ladi va psixik hayot muayyan mazmun kasb etadi. Odam ongining yuksak belgisi o'z-o'zini anglashidir. Bu sifat odamning sub'ektiv ravishda o'z "Men"ini his qilishida namoyon bo'ladi. Odam o'z tevarak-atrofidagi olamdan ajralgan holda o'z "Men"ini anglay olmaydi. Chunki odam ongining, o'zini anglashining, "Men"ining mazmuni o'sha odamni qurshab turgan real voqelik in'ikosidir.

Shaxsshunoslik fanlari tizimidagi eng mas'uliyatli soha psixologiya fani zimmasidadir. Psixologiya fanining hamma tarmoqlari inson shaxsini turli tomonlardan o'rganishdan tashqari, umumiy psixologiya boshqa tarmoqlar bilan bog'liq holda shaxsning ruhiy olamini (ichki dunyosini) , bu olamning tashqi dunyo bilan munosabat yo'llarini, har bir shaxsning boshqalardan farqini, individualligini, o'zigagina xos bo'lgan shaxsiyatini ta'minlovchi xususiyatlarni o'rganadi. Onglilik, jamiyatga a'zo bo'lish, jamiyat taraqqiyotida faol ishtirok etish kabi jarayonlarda shaxsning o'zligi namoyon bo'ladi. Odamdagi o'zlik uning xulq-atvorida, boshqalar bilan munosabatlarida, irodaviy harakatlarida, qobiliyati va qiziqishlarida ifodalanadi hamda uning ijtimoiy mavqeini belgilaydi

Odam psixikasining barcha tomonlari, inson xulq-atvorining turli-tuman hamma hususiyatlari asosan faoliyatida namoyon bo'ladi. Har bir shaxs o'ziga xos qaytarilmas dunyo. Dunyoda bir - biriga aynan o'xshash bo'lgan ikki kishini topish juda mushkul. Odam tashqi qiyofasi, bo'yi - basti bilan boshqa biror kimsaga o'xshashi mumkin, lekin fe'li, mijozi va shaxs sifatidagi xususiyatlari nuqtai nazaridan aynan bir xil insonlar bo'lmaydi. hattoki, olimlar bitta tuxumda rivojlangan egizaklarda ham juda ko'p jihatdan aynan o'xshashlikni qayd qilishgan, shaxsiy sifatlaridagi korrelyatsiyada esa ba'zi tafovutlar aniqlangan.

Individual sifatlar bizning ongli hayotimizning ajralmas kismi, idrokimiz, xotiramiz va fikrlarimiz yunaltirilgan muhim predmet xisoblanadi.. Chunki aynan ular bizning turli faoliyatlarni amalga oshirish va ishlarni bajarishdagi individual uslubimizga bevosita aloqador. Kimdir juda chakkon, tez ish qiladi, lekin sifatsiz. Kimdir juda yaxshi qoyilmaqom ish qiladi, lekin juda sekin, kimdir ishga yuzaki qarab, nomiga uni bajarsa, boshqa bir odam unga butun vujudi va e'tiqodi bilan munosabatda bo'lib, tinimsiz izlanadi va jamiyat uchun manfaat qidiradi.

Har bir ijtimoiy - iqtisodiy davr o'zkishilarini, o'zavlodini tarbiyalaydi va bu tafovut odamlardagi xarakterologik xususiyatlarda o'z aksini topadi. Mehnat va o'qish jarayonida ko'nikma hamda malakalar bilan birga odatlar ham katta o'rin egallaydi

Kishi o'z hayoti va faoliyati davomida har doim juda ko'p miqdorda turli-tuman ish-harakatlar qiladi. U bu harakatlar yordami bilan o'z ehtiyojlarini qondiradi va har xil maqsadlarni amalga oshiradi. Bu harakatlarning ko'pi malaka va odatlardan iboratdir.

Malaka va odatlar kishining hayoti va faoliyatini yengillashtiradi, chunki ular ongli harakatlarga qaraganda tezroq va ong bilan zo'r bermasdan amalga oshiriladi. Mustahkam o'zlashtirilgan malaka va odatlar har bir harakatni o'ylab qilishdan iborat bo'lgan juda diqqat talab ish «yukidan» kishining ongini «bir oz yengillashtiradi» va buning bilan uning vaqti va quvvatini tejaydi. Agar kishining har bir ish harakati albatta tafakkur va iroda kuchining ishtiroki bilan bajarilishi shart bo'lganda edi, kishining istagan bir faoliyati naqadar murakkab, naqadar davomli va naqadar ko'p diqqat talab ishga aylanib ketgan bo'lur edi. Hosil qilingan va avtomatlashtirilgan malakalar bosh miya po'stining ishini tejaydi.

Malaka va odatlar faqat kishining faoliyatini yengillashtirishi uchungina emas, balki bizning malaka va odatlarimizga aylanib qolgan harakatlardan «ozod bo'lgan» ongni shu faoliyat orqali qo'lga kiritiladigan maqsad ustida to'plana olishiga imkon berishi uchun ham muhimdir. Shu tariqa ozod bo'lgan ong ish jarayonining o'zida shu faoliyatning samarali davom etishiga yordam beradigan harakatlarning yangi turlariga ko'chishi mumkin.

Odatlar, xuddi malakalar singari, yangidan hosil qilingan, mustahkamlangan va avtomatlashtirilgan ish-harakatlardir lekin malaka va odat aynan bir narsa emas, ular bir-biridan farq qilinadi.

Ma'lum sharoit ta'siri ostida vujudga kelib va mustahkamlanib qolgan va bajarilib turishi kishining ehtiyojiga aylangan amal harakatlarni odat deb aytiladi.

Bunday harakatlarni (odatlarni) to'xtatib qolish, odatda, tajanglik va norozilik hissini uyg'otadi. Masalan, bunga quyidagi odatlarni ko'rsatish mumkin: masalan bir vaqtda uyqudan turish, ovqat oldidan qo'lni yuvish, ishda asboblarni ma'lum bir joyga qo'yish va shuning kabilar.

Odatlanib qolgan harakatlar ko'pincha shunchalik mustahkam singib ketadiki, ular kishiga tabiiy bo'lib ko'rinadi. «Odat kishining ikkinchi tabiatidir»

(«o‘rgangan ko‘ngil o‘rtansa qo‘ymas») degan maqol ham mana shundan kelib chiqqan.

Odatlar ham, malakalar singari, har xil bo‘ladi, masalan, shunday odatlar bo‘ladi: kasb va mehnat odatlari (ishga o‘z vaqtida kelish, boshlangan ishni oxirigacha yetkazish, har qanday ishni oldindan o‘ylab, reja bilan ishlash, ish uchun zarur bo‘lgan barcha narsalarni ma’lum bir joyga qo‘yish va boshqalar), gigiena odatlari (badan va kiyimlarning tozaligini saqlash, tishni tozalab turish, ovqat oldidan qo‘llarni yuvish va boshqalar), estetik odatlar (sochlarni yaxshilab tarab, kiyimlarni ozoda qilib yurish, uyni tartibli va chiroyli qilib tutish, nutq madaniyatiga rioya qilish va boshqalar), ahloqiy odatlar (rostgo‘y, sofdil va halol bo‘lish).

Faqat ijobiy odatlar bo‘lib qolmay, balki salbiy odatlar ham bo‘lishi mumkin. Salbiy odatlarga misol qilib – ishdagi yuzakilik va tartibsizlikni, irkitlikni, ko‘pol iboralar, ya’ni, masalan, xo‘sh kabi keraksiz so‘zlarning ishlatilishini, tirnoqlarni kemirish odatini, shuning kabilarni ko‘rsatish mumkin. Odatlarni hosil qilish jarayoni, xuddi malakalarni hosil qilish jarayoni singari, ya’ni bir xildagi harakatlarni asosan ko‘p martalab takrorlab berish orqali sodir bo‘ladi. Odat va malakalar hosil bo‘lish qonuniyatlari birdir.

Odatlarning nerv-fiziologik asosi ko‘nikma va malakalarning nerv-fiziologik asoslari bilan birdir. Odatlarning ahamiyati. Odatlar, malakalar singari, odamning faoliyatlarida katta o‘rin egallaydilar. Odatlar bizning hayotimizni va faoliyatimizni saranjom-sarishta hamda tartibli qiladi. Gigiena malakalari, maishiy, mehnat va estetik malakalar shular jumlasidandir. Chunonchi, mehnatning ratsional rejimiga rioya qilish odatlari, sanitariya-gigiena odatlari, yaxshi madaniy hulq-atvor odatlari mehnat unumdorligini oshirishning muhim shartlaridandir. Salbiy xarakterga ega bo‘lgan odatlar, aksincha bizning hayotimizni bebosh qiladi va intizomsizlikka sabab bo‘ladi.

Odatlar inson ongining barcha faoliyatini va xususan, tafakkur hamda diqqatini tartibli qiladi, bizda o‘ylash odati va o‘ylashning odat bo‘lib qolgan usullari, diqqatli bo‘lish odati va odat bo‘lib qolgan diqqat vujudga kelishi mumkin. Juda ko‘p odatlar xarakterimizning xislatlariga aylanib qoladi. Shuning uchun, ijobiy odatlarni

paydo qilish kishini eng kichik yoshdan boshlab tarbiyalashning muhim vazifalardan biridir.

Odatlarning yuzaga kelishi juda yosh bolalik davrdan boshlanadi. Odatlarning dastavval boshlab yuzaga kelishida bolalarning kattalarga taqlid qilishlari katta rol o'ynaydi. Bolada odatlarning yuzaga kelishi ko'p jihatdan kattalarning hulq-atvoriga bog'liq. Maktabda odatlar o'qituvchi talablarining ta'siri hamda o'qituvchi tomonidan o'quvchilarning qilgan ishlari va hulq-atvorlariga sistemali tarzda baho berib borish orqali yuzaga keltiriladi. O'quvchilarda ijobiy odatlar yuzaga keltirishda sinf jamoasi hamda kamolot yoshlar tashkilotlari ijtimoiy fikrining ta'siri alohida ahamiyatga egadir. Maktabda mehnat qilishga odatlanishni hosil qilish alohida muhim o'rinda turishi kerak. O'quvchilarda mehnat faoliyatiga tegishli ijobiy odatlarni yuzaga keltirish lozim. Masalan, bajaradigan mehnat vazifasiga javobgarlik bilan qarash, ish joyini to'g'ri tashkil qilish, ish asboblari, materiallar va mashinalarga nisbatan ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish, harakatlarni vaqt mobaynida ratsional (to'g'ri) taqsimlash, qilinayotgan ishlarni sistemali ravishda nazorat qilib borish, qiyinchiliklarni yengish, mehnat usullarini yaxshilash yo'lida tashabbus va ijodkorlik ko'rsatish hamda mehnat unumdorligini oshirishga intilish odatlari shular jumlasidandir. Ijobiy odatlarni hosil qilish bilan birga salbiy odatlarni yo'qotish yuzasidan ham ish olib borish lozim. Salbiy odatlarni yo'qotish uchun asosan bunday odatlarga qarshi sistemali ravishda va muttasil kurash olib borish kerak. Salbiy odatlarning oldini olish zarur, agar sharoit imkon bergan joyda, paydo bo'lgan salbiy odatlarni ijobiy odatlar bilan almashtirib yuborish kerak.

Maktabda to'g'ri hosil qilingan va mustahkamlangan odatlar maktab tugatilgandan so'ng hulq-atvorning barqaror shakli bo'lib qoladi va shaxsning ancha mustahkam xislatiga aylanadi. Malaka va odatlar kishining hulq-atvori va faoliyatining barcha turlari uchun zarurdir. Ammo kishining faoliyati va hulq-atvorini faqat malaka va odatlardan iborat deb bo'lmaydi. Malaka va odatlar bilan birga, kishining ongli ijodiy faoliyati ham yuksak darajada o'sishi va namoyon bo'lishi lozim. Kerakli malaka va odatlarni tarbiyalash bilan birga,

kishida o'z hulq-atvori va o'z faoliyatiga nisbatan ongli munosabatda bo'lishni ham o'stirmoq kerak.

Har bir shaxsdagi e'tiqod va ideal uning ehtiyojlari va qiziqishlari bilan bog'liq holda namoyon bo'ladi. Shaxsdagi jamiyat moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan g'oyalar inson umriga mazmun bag'ishlaydi, mavjud jamiyatni rivojlantirishda harakatlantiruvchi bo'lib xizmat qiladi.

Shaxsning eng qimmatli sifatlaridan biri mustaqillik, ichki erkinlik, ichki o'ziga xoslikdir. Mustaqillik o'zganing yo'l-yo'rig'isiz muhim qarorga kelish va uni amalga oshirish qobiliyatini; mas'ullik, o'z hatti-harakatalri uchun javob berishga tayyorlikni; xulq, fe'l-atvorning realligiga, ijtimoiy jihatiga va ma'naviy to'g'riligiga bo'lgan e'tiqodni o'z ichiga oladi.

Shaxsdagi uning mustaqilligini ifodalovchi bu sifatlar bir-biri bilan mustahkam bog'liq bo'lib, ulardan birortasining yetishmasligi shaxsning mustaqillik sifatiga salbiy ta'sir etadi. Psixologiyada mustaqillik madaniyatini va u bilan bog'liq bo'lgan ruhiy jarayonlarni ifodalovchi bir qancha xususiyatlar bor. O'z shaxsini namoyon qilishga, "men"ining barqarorligini saqlab turishga qobillik; o'z-o'zini nazorat qilish; hayotida kechgan eng muhim voqealar uchun boshqalarni aybdor qilmay, hamma mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga moyillik shular jumlasidandir.

3.BOB. Amaliy taxlillar.

3.1. Tajribalar o'tkazish va natijalar interpretatsiyasi/

Jahon psixologiyasi fani xulq-atvor va odatlar to'g'risida qator ilmiy konsepsiyalar mavjud bo'lishiga qaramay, bu boradagi ilmiy izlanishlar ayrim ziddiyatli holatlaridan qat'i nazar, insonning aqliy taraqqiyotini aniqlashga, uni oldindan aytib berishga, o'lchashga, rivojlantirish yo'li va vositalarini isloh qilishga xizmat qiladi.. Bilish jarayonlarining asosiy mahsuli - muayyan tizimli va tuzilmali, turli shakldagi (ko'rinishdagi, verbal va noverbal, simvolik va hokazo) bilimlar majmuasi sifatida namoyon bo'ladi. Ularning har qaysisi o'ziga xosligi bilan bir-biridan ajralib turadi. Professional faoliyat shaxsdan juda ko'p bilimlarni hamda malakalarni talab qiladi. Nima uchun u yoki bu kasbni tanlaganini anglab yetgan shaxs (motivlar muammosi), endi o'zfaoliyati va qobiliyatlarini boshqara bilishi va o'z ustida muttasil ishlab, malakalarini orttirib borishi shart. Ma'lumki, odamlar bir-birlaridan ko'p jihatlari bilan farq qiladilar

Maqsad: Turli metod va metodikalar yordamida shaxni individual xususiyatlarini aniqlash

Kerakli jihozlar: Psixalogik testlar to'plami: Bunda 1) "Siz uni qanchalik sevasiz?" testi

2) "Siz tejamkormisiz?" testi va psixogeometrik metod

Tadqiqotning borishi: Men sinaluvchiga psixologik testlar to'plamini ko'rsatdim va unga bir qancha testlar to'g'risida ma'lumotlarni tushuntirdim. Keyin u mendan "Siz tejamkormisiz?" testini o'tkazishni so'radi. Men sinaluvchiga test 10 savoldan iborat bo'lib, har bir savolga "ha" yoki "yo'q" javobini belgilashni va to'g'ri javob berishi kerak ekanligini aytdim. U bir qog'ozda savollarga javob bera boshladi. Bu test orqali sinaluvchi nimalar aniqlanishini so'radi. Testdan maqsad shuki siz o'zingizda iqtisodiy tarbiya qanday shakllanganligini bilishi mumkinligini aytdim. Bunga u juda ham qiziqdi.

"Siz tejamkormisiz" testi

1. Hamyoningizda qancha pul borligini har doim bilib yurasizmi?
2. Tug'ilgan kunlarda va bayramlarda birovga sovg'a qilish va birovdan sovg'a olish o'z ahamiyatini yo'qotadi deb o'ylaysizmi?
3. Ishlatilgan molar bilan savdo qiladigan do'kondan kim sotib olishni yoqtirasizmi?
4. Teatrda eng arzon billet olishni to'g'ri deb o'ylaysizmi?
5. Har oyda eng kamida 10 000 so'm pulni tejab qola olasizmi?
6. Lotareyada katta miqdordagi pul yutug'i chiqsa ish joyini tashlab ketarmidingiz?
7. Faqat qimmatbaho va yuqori sifatli buyum sotib olish to'g'rimi?
8. Birovga hech bir sababsiz sidqidildan sovg'a berasizmi?
9. Kreditga buyum olish maqsadga muvofiqmi?
10. Ertangi kun uchun pul jamg'armay hozircha yaxshi yashasak bas deb o'ylaysizmi?

Har bir javobi uchun 10 ball beriladi. "yo'q" javobi uchun esa ball berilmaydi.

1-5-savollar savollar uchun ochkolar yig'indisi A-guruxni sizning tejamkorlik yoki xasisligingizni bildiradi.

6-10 savollar B-guruxni tashkil etadi. Bu esa saxiy yoki isrofgar joyingizni bildiradi.

Natijalar taxlili

- | | |
|---------|---------|
| 1. Ha | 6. yo'q |
| 2. yo'q | 7. ha |

- | | |
|---------|----------|
| 3. yo'q | 8. ha |
| 4. yo'q | 9. ha |
| 5. yo'q | 10. yo'q |

A gurux – 10

B gurux – 30

“Siz uni qanchalik sevasiz?” testi

1. Sevganingizni rashk qilasizmi?

- a) jjuda ham
- b) hech qachon
- c) ba'zida

2. Uni sog'inasizmi?

- a) esga tushganda
- b) albatta
- c) yo'q

3. Kuta olasizmi?

- a) kutish unchalik yoqmaydi
- b) ha
- c) yo'q

4. Agar sevgilingiz o'rnida bo'lib qolsangiz qanday munosabatda bo'lasiz?

- a) xuddi uningdek
- b) umuman boshqacha
- c) o'ylab ko'rish kerak

5. Tasavvur qilaylik siz boshqasini sevib qoldingiz endi sevgilingiz bilan qanday xayrlashgan bo'lardingiz

- a) yig'lab
- b) bu oddiy narsa
- c) boshqasini seva olmayman

6. Sevgilingizga xiyonat qila olasizmi?

- a) aslo
- b) xudo biladi

c) xiyonat qilib bo'lganman

7. Hayotingizda nechtasini sevgansiz?

a) 1 ta

b) 2 tadan 10 tagacha

c) 10 dan ko'p

8. Sevgilingizdan arazlashib qolsangiz

a) kechirim so'rayman

b) uning kechirim so'rashini kutaman

c) yarashib ketaveraman

TEST KALITI

Sav ol jav ob	1	2	3	4	5	6	7	8
A	1	2	2	1	2	1	1	1
B	2	1	1	3	3	2	2	3
C	3	3	3	2	1	3	3	2

Natijalar taxlili

- | | | |
|----|-----|--------|
| 1. | c-1 | 5. b-1 |
| 2. | b-1 | 6. b-2 |
| 3. | b-1 | 7. a-1 |
| 4. | a-1 | 8. b-2 |

Sinaluvchi jami 12 ball to'pladi

Tadqiqotning borishi

Psixogeometrik test orqali sinaluvchi o'zining harakter xususiyati qaysi shaklga mos ekanligini bilib oladi. Sinaluvchiga beshta shakl kvadrat, uchburchak,

aylana, to'rtburchak va zigzag ko'rsatiladi. Ular orasidagi sinaluvchi o'ziga ma'qul bo'lgan shaklni tanlashi kerakligini aytdim. Sinaluvchi birinchi bo'lib zigzag shaklini tanladi. 2-kvadrat, 3- uchburchak, 4- to'rtburchak, 5- aylana shakllarini tanladi.

Zigzak- erkinlik ijod o'zgarish ijobilari yangilikka intiluvchan, hayolparast, optimist, ruxi tetik. Salbiylari: tartibsiz, o'zgaruvchan.

Kvadrat – hayotiy qadryatlari: tartib ish an'ana. Asosiy psixologik xususiyatlari: ijobiylari: tartiblilik, intizom, o'z vaqtida ishlarni bajaradigan, ozoda pokiza. Salbiylari: bir yoqlama qaysar, konservativ, yengillikdan cho'chiydigan, pishiq jiddiy chidamli.

Uchburchak – hokimiyat, liderlik, amal mavqe'. Ijobiylari: yaxshi lider, mas'uliyatli, qatiyatli, o'ziga ishongan, salbiylari: egosentrik, egoist, toatsiz qo'pol.

Aylana – insonlarga xizmat qilish oila baxti va manfaati muloqot; ijobiylari: kirishuvchan, hammabop, mexribon, bosiq g'amxo'r.

To'rtburchak – o'zgarish, dinamika, azort; ijobiylari: intiluvchan, ziyrak, sezgir, empotiya, samimiy, dadil; salbiylari: qatiyatsiz, ish va so'z birligi yo'q, yengiltak va lanj.

Natijalar taxlili

1. Siz tejamkormisiz?

A-guruhda 10 ball B-guruhda 30 ball to'pladi. Sinaluvchida savollarga javob berish jarayonida savollarni taxlil qilib ham bordi. Siz pulni to'g'ri sarflay bilasiz. "Pul qo'lni kiri" qabilada ish yuritasiz. Siz uchun hayotda puldan muhim narsalar ham bor. Pulga bir vosita sifatida qaraysiz. Hayotda ko'p narsaga ega bo'lishni istaysiz. Puli ko'plar baxtli deya o'ylamaysiz. Siz isrofgarchilikka yo'l qo'ymaysiz. Lekin ehtiyojlaringizni ham nazorat qila olmaysiz.

2. Siz uni qanchalik sevasiz?

Test natijalariga ko'ra sinaluvchi 12 ball to'pladi. Sizga "xo'p" degan odam baxtlidir. Siz unchalik romantik emassiz. Hayotga real qaraysiz. O'zingizni qanday

o'ylasangiz boshqalarga ham shunday munosabatda bo'lasiz. Siz sizni sevgan odamni qadrlay bilasiz. Hayotda haqiqiy muxabbatga albatta uchraysiz. Siz bilan kechirilgan hayot baxtli hisoblanadi.


3. Natijalar taxlili

Sinaluvchiga geometrik shakllarni ko'rsatdim. U birinchi bo'lib zigzak shaklini tanladi. Bu shakl kreativlik, ijodkorlik simvolidir. Chunki beshta shakl ichida bu eng nodir va yakka yagona yopilmagan shakldir. Zigzakning fikri juda ham kuchli obrazlilik integrativlik, jimjimadorlik ular odatda rivojlangan estetik hisga ega bo'ladilar. Zigzaklar dunyoni doimiy o'zgaruvchan holda ko'rishga odatlanganlar. Ular uchun ish joyida katta rang-baranglik rag'batlantirishni yuqori darajasi bo'lishi zarua. Ular shunga o'z ishida boshqalarga tobe bo'lishni hohlamaydilar. Kelajakka intiladilar. Borliqqa qaraganda imkoniyatga ko'proq qiziqadilar. Boshqalar uchun narsalar olami qanchalar real bo'lsa ular uchun fikrlar, g'oyalar olami shunchalik real. O'z hayotining ancha qismini ular ushbu hayoliy dunyoda o'tkazadilar shuning uchun ular ham amaliyotda no'noq, normal va ishonuvchan harakter egasidir

1-jadval

Xulq-atvor va odatlarni shakllanishining korrelyatsion munosabati

Xulq-atvor ko'rinishlari	Muamoli ta'lim	Aqliy hujum	Loyihalar	Hamkorlikda ishlash	Kichik guruhlarida ishlash
Umumiy i	0,32	-0,21	0,37	0,39	0.40
ijtimoiy	-0.24	0.22	0.34	0.40	0.43



Ushbu diagrammadan kelib chiqqan holda talabalarning empatiya qobiliyatlari uchun zarur kanallarning rivojlanishi, ularning yosh xususiyatlariga binoan o'zgarib borishidan ko'ra, alohida bitta kanalning barcha yoshdagilar uchun ko'proq xos bo'lishini ko'rsatmoqda. Natijalarga ko'ra, har bir bosqich talabalarida empatiyaning qaysidir darajasi yuksakroq bo'lishi kuzatildi.

Yuqoridagi jalvaoga ko'ra ijobiy ta'sir orqali shaxsni o'ziga xos xulq-atvor uzviylikni qanchalik ta'minlashga erishilganligini o'rganish uchun tajribada ularning ko'rsatkichlari bilan ta'lim usullari orasidagi korrelyatsion munosabatlarni aniqlashga e'tibor qaratdik.

Xulosa.

Shaxs xulq –atvoridagi o'zgarishlar va ularning o'ziga xos jihatlarini shakllantirishda bolaning qiziqishlariga e'tibor berish, mutaxassis va maslahatchi psixologlar hamkorligi, hamda ota-onasi va oila a'zolarining o'zaro munosabatlarinida ta'siri bilan belgilanadi. Ayrim ota-onalar turli sabablarga ko'ra boladagi xulqni o'zgarishini va buzilishi darajasini oshirib yuboradilar, muammolarni juda qiyin va og'ir qabul qiladilar. Ba'zi bir ota-onalar psixologo-tibbiy-pedagogik maslahatga shifokor, pedagog yoki qarindoshlari ta'siri natijasida kelgan bo'lsalar-da, o'z farzandining muammosini tan olishni istamaydilar, bu esa bolaning shaxs sifatida nomoyon bo'lishida, xulqini boshqarishida ayrim muammolarni yuzaga keltiradi. Shunda ulardagi qaysarlik, o'jarlik, yoki bo'lmasa, passiv xulq ko'rinishlari shakllanib qoladi. Shuning uchun boladagi ijobiy xulq atvorni shakllantirishda, odatlarning bola faolligini ta'minlovchi vosita sifatida tarkib topishi uchun tarbiyani to'g'ri tashkil etilishi muximdir.

Pedagogik innovatsiyalar asosida faoliyatni tashkil etish individual va ijodiy xususiyatga ega. Shu bilan birga ta'lim va tarbiya jarayonini yo'lga qo'yishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish xulq atvor xususiyatlaridagi ijobiy sifatlarni shakllanishiga, umumiy va emotsional nomoyon bo'luvchi odatlarni rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi omil bo'la oladi.

Demak, ta'lim - tarbiya jarayonida xulq- atvor shakllanishining dinamikasini ta'minlovchi omillar intellektual faoliyat usullarini yangi sharoitga ko'chirish, ulara o'z-o'zini boshqarish, shaxsiy o'quv motivlarini idora qilish, ichki imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish singari xolatlarga refleksiv yondashish zamiridagina namoyon bo'ladi

Tavsiya

Xulq-atvor va odatlarni ijobiy sifatlarini shakllantirishda Ota-onalarga farzandining ruhiy rivojlanishining faqat zaif tomonlarini emas, balki uning ichki imkoniyatlari, hamda uni bartaraf etishdagi ahamiyatini ko'rsata olish, ota-onalar va oila a'zolariga bola muammosini hal etishda o'z javobgarligi, kuchi va imkoniyatlarini his etishga o'rgatish, bola xususiyatlari va imkoniyatlariga mos keluvchi ta'lim sharoitlarini belgilash, oilaning tibbiy, ijtimoiy-psixologik bilimlarini, bola bilan muloqot malakasini, bola muammosini o'zaro muhokama qilish orqali umumiy tarbiyalashdan xabardor bo'lish ko'nikmasini oshirish, ota-onalar farzandining hayoti, uning muammolarini hal etish uchun javobgarlikni his etishi, bola muammolari yuzasidan oilaga hayotiy qarorlarni tanlashga yordam berishini ta'minlashmaksadga muvofiqdir.

Xulq –atvor shakllanishidagi tarbiyaviy ta'sirlar shaxsni o'rab turgan ijtimoiy muxit va ijtimoiy guruxlarning psixologik to'siqlarni angib o'tishdagi individual psixologik xususiyatlarini e'tiborga olish zarur.

Ijobiy odatlarni shakllantirishda bolani yoshligidan boshlab oilada sog'lom psixologik muxitni shakllantirish kerak.

Xulqi og'ishganlikni oldini olishda yoshga xos krizis davrlarini hisobga olish maqsadga muvofiqdir.

Tarbiyaviy usullarni ta'sirchanligini oshrishda tarbiyachi va muallimlarning o'zlarining psixologik xususiyatlari va tarbiyalanganlik darajasi muxim hisoblanadi.

Bolaning qiziqishlariga e'tibor berish, mutaxassis va maslahatchi psixologlar ishining o'ziga xosligi faqat bolaga emas, balki uning ota-onasiga va oila a'zolariga maslahat berish yo'li bilan belgilanadi. Ayrim ota-onalar turli sabablarga ko'ra bola rivojlanishi buzilishi darajasini oshirib yuboradilar, muammolarni juda qiyin va og'ir qabul qiladilar. Ba'zi bir ota-onalar psixologo-tibbiy-pedagogik maslahatga shifokor, pedagog yoki qarindoshlari ta'siri natijasida kelgan bo'lsalar-da, o'z farzandining muammosini tan olishni istamaydilar, bola rivojlanishidagi barcha buzilishlarini rad etadilar. Maslahatxona mutaxassislari va

psixologlari bolaning qiziqishlari va ruhiy rivojlanish buzilishlarini hisobga olgan holda unga mos ta'lim-tarbiyaviy shart-sharoit mohiyatini aniq, ravshan ochib beradilar. Sababi, maslahatchi psixolog bola oila a'zolariga yokadigan yo'lni emas, balki bola rivojlanishi uchun zarur va foydali bo'lgan yo'l-yo'riqni ko'rsatadilar.

Oilaning ijtimoiy-madaniy va psixologik xususiyatlarini hisobga olish.

Oila a'zolarining fikrini hisobga olish.

Shuningdek bola ehtiyojlarini qondiradigan xulosaga kelishda barcha oila a'zolarining fikrini hisobga olishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

-

Ilovalar.

Mashqlar.

1. O'zingizga o'zingiz savol - javoblar tarzida hat yozishga harakat qiling. Yozganda ko'p o'ylanmay, kallaga kelgan savolga, mos tarzda javob yozing. Javoblarni sharxlash o'zingizga havola. O'zingiz xolis xulosa chiqaring.

2. «Yaqingacha mening psixikam to'g'risida nimalarni bilmas edimu, endi nimalarni bilaman?» degan savolga yozma javob yozing.

3. Ilovada keltirilgan metodikalar orasida o'z-o'zi ni baholash metodikasini toping va o'zingizni avval o'zingiz tekshiring, so'ngra o'rtog'ingizdan iltimos qiling.

T. Elersning shaxsning muvaffiqiyatga erishish motivatsiyasini o'rganish metodikasi.

Quyida sizga 41 ta savol beriladi. Siz ularga «ha» yoki «Yo'q» deb javob bering.

1. Ikkita variantdan bittasini tanlash imkoniyati bo'lganda, noma'lum vaqtga cho'zib yotgandan ko'ra, bittasini tezrok bajarishga kirishgan ma'kul.

2. Men 100 foizga ishni yaxshi bajara olishimga ishonchim bo'lmasa, juda tez achchiqlanaman.

3. Men ishlayotgan chogimda shunday bo'ladiki, men butun vujudim bilan unga kirishib ketgandayman.

4. Muammoli vaziyat paydo bo'lganda, men oxirgilardan bo'lib, qaror qabul qilaman.

5. Agar ikki kun qatorasiga ishsiz qolsam, men o'zimni kuyarga joy topa olmayman.

6. Ba'zi kunlari mening yutuqlarimni o'rtachadan past deb baholash mumkin.

7. Men o'zimga boshqalarga nisbatan talabchanroqman.

8. Men boshqalarga nisbatan mehribonroq va g'amxo'rroqman.

9. Men qiyin bir ishdan bosh tortganimdan so'ng, ko'pincha afsuslanib, o'zimni koyiymen, chunki bilamanki, agar shu ishni qilganimda, albatta, muvaffiqiyatga erishgan bo'lardim.

10. Ish jarayonida men biroz xordik chiqarishlarga muxtoj bo'laman.

11. Tirishqoqlik - mendagi asosiy sifat emas.

12. Mening ishdagi yutuqlarim har doim ham bir xil bo'lavermaydi.

13. Meni o'zim shug'ullanayotgan ishdan boshqa ishlar o'ziga rom etadi.

14. Men maqtashganidan ko'ra, tanbex berishsa, kirishibrok ishlayman.

15. Men hamkasblarim meni ishchan odam deyishlarini bilaman.

16. Paydo bo'lgan to'siqlar qarorlarimni qat'iyroq qiladi.

17. Mening izzat - nafsimga tegish oson.

18. Kutarinqiliksiz ishlagan chog'larimni tezda sezishadi?

19. Ishni bajarish jarayonida men boshqalarning yordamiga tayanmayman.

20. Ba'zan men hozir bajarishim lozim bo'lgan ishni keyinga qoldiraman.

21. Odam faqat o'ziga ishonishi kerak.

22. hayotda puldan ham muhimrok bo'lgan narsalar kam.

23. Men muhim ishni bajarishim bo'lgan paytlarda boshqa hech narsani o'ylamayman.

24. Men boshqa ko'pchilikka nisbatan izzattalab emasman.

25. Ta'til nixoyasida men odatda ishga qaytishimni uylab, quvonaman.

26. Ishlagim kelgan paytlarda, men ishni boshqalarga nisbatan yaxshiroq va sifatlirok bajaraman.

27. Men tirishib, sidqidildan ishlaydigan odamlar bilan tez kirishib ketaman.

28. Men bekorchilik paytlarimda, o'zimni behalovat his qilaman.

29. Men boshqalarga nisbatan ko'prok mas'uliyatli ishlarni bajaraman.

30. Men o'zim qaror qabul qilishim kerak bo'lganda, buni sitqidildan yaxshi bajarishga intilaman.

31. Mening do'stlarim meni ba'zan dangasa, deb koyishadi.

32. Mening yutuqlarim ma'lum ma'noda kasbdoshlarimga ham bog'liq.

33. Rahbarning ra'yini qaytarish besamara ish.

34. Ba'zan qanday ishni bajarayotganligingni ham bilmaysan.
35. Ishim yurishmaganda, men betoqat bo'lib qolaman.
36. Men odatda o'z yutuqlariga kam ahamiyat beraman.
37. Boshqalar bilan hamkorlikda ishlaganimda, mening ishim boshqalarnikidan samaraliroq bo'ladi.
38. Ko'pgina boshlab kuygan ishlarimni oxiriga yetkazmaganman.
39. Men ish bilan unchalik band bo'lmagan odamlarga havas qilaman.
40. Men xukmronlikka va amalga intilgan odamlarga havas qilmayman.
41. Men o'zimning haqligimga ishonsam, haqiqatni isbot qilish uchun har narsaga borishga tayyorman.

K a l i t :

Siz quyidagi savollarga «ha» deb javob bergan bo'lsangiz, 1 balldan olasiz: 2, 3, 4, 5, 7, 8, 9, 10, 14, 15, 16, 17, 21, 22, 25, 26, 27, 28, 29, 30, 32, 37, 41. Yana 1 balldan quyidagi savollarga «Yo'q» deb javob bergan bo'lsangiz olasiz : 6, 13, 18, 20, 24, 31. 36, 38, 39. To'plagan ballarni hisoblab chiqing.

Natija :

- 1 balldan 10 balgacha : Sizdagi muvaffaqiyatga motivatsiya past;
- 11 balldan 16 gacha : motivatsiya darajangiz o'rtacha;
- 17 balldan 20 balgacha: motivatsiya darajangiz anchagina yuqori;
- 21 balldan ortik bal: yutuqqa nisbatan motivatsiya Sizga juda yuqori.

2-metodika.

Test va topshiriqlar

Quyida mashxur olim K. Yungning xarakter tipini aniqlash metodikasini keltirdik. Berilgan savollarga javob variantlaridan birini tanlash kerak.

1. Qaysi biri siz uchun muhimroq?

a) kichikkina do'stlar davrasi;

b) ko'pgina o'rtoqlar davrasi.

2. Qanday kitoblar sizga ko'proq yokadi?

a) qiziqarli syujetli;

b) odamlar ruhiy kechinmalari aks ettirilgan.

3. Ishda nimaga ko‘prok yo‘l kuyishingiz mumkin?

a) kechiqish;

b) hatoliklar.

4. Agar yomon ish qilib kuysangiz:

a) juda qaygurasiz;

b) unchalik qaygurmaysiz.

5. Odamlar bilan qanday chiqishasiz?

a) juda tez va oson;

b) sekin, extiyotkorlik bilan.

6. O‘zingizni arazkash deb hisoblaysizmi?

a) ha;

b) yo‘q.

7. Chin dildan kulishga moyilmisiz?

a) ha ;

b) yo‘q.

8. Siz kandaysiz?

a) kamgap ;

b) sergap.

9. Siz ochiqmisiz yoki hislaringizni birovlardan yashirasizmi?

a) ochiqman ;

b) yashiraman.

10. O‘z his-kechinmalaringizni tahlil qilishni yoqtirasizmi?

a) ha ;

b) yo‘q .

11. Ko‘pchilik davrasida bo‘lganda, Siz :

a) tinmay gapirasiz ;

b) boshqalarni tinglaysiz.

12. Tez - tez o‘zingizdan norozi bo‘lib turasizmi?

a) ha ;

b) yo‘q.

13. Biror nimalarni tashkil qilishni yoqtirasizmi?

a) ha ;

b) yo‘q.

14. Sirlaringiz yozilgan kundalik tutishni xoxlarmidingiz?

a) ha ;

b) yo‘q.

15. Biror narsaning qaroridan uni bajarishga tez o‘tasizmi?

a) ha ;

b) yo‘q.

16. Qayfiyatingizni tez o‘zgartira olasizmi?

a) ha ;

b) yo‘q.

17. O‘zgalarni ishontirib, ularga o‘zfikringizni o‘tkazishni yaxshi ko‘rasizmi?

a) ha ;

b) yo‘q.

18. Sizning harakatlaringiz :

a) tez ;

b) sekin.

19. Siz bo‘lishi mumkin bo‘lgan noxush hodisalardan tashvishlanasiz ?

a) tez - tez ;

b) ba’zan.

20. Qiyin holatlarda Siz :

shoshilasiz:

a) yordam so‘rashga

qilaysiz.

b) hech kimga murojaat

Endi javoblaringizni hisoblab chiqing. Metodikaning kaliti :Javoblar ichidagi quyidagilar Sizdagi ekstroversiyani ko'rsatadi: 1b, 2a, 3b, 5a, 6b, 7a, 8b, 9a, 10b, 11a, 12b, 13a, 14b, 15a, 16a, 17a, 18a, 19b, 20a. Mos kelgan javoblar sonini 5 ga ko'paytiring.

0 - 35 ballar - introversiya;

36 - 65 ballar - ambiversiya;

66 - 100 ballar - ekstraversiya.

